

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Iqtisodiyot kafedrası**

**“QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI”**

fanidan

**O'QUV – USLUBIY  
MAJMU'A**



<b>Bilim sohasi:</b>	<b>800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jligi va veterenariya</b>
<b>Ta`lim sohasi:</b>	<b>810000 – Qishloq xo'jaligi</b>
<b>Ta`lim yo'nalishi:</b>	<b>60811900 – Sabzavodchilik, polizchilik va kartoshkachilik</b>
	<b>60811800 – Mevachlik va uzumchilik</b>
	<b>60812000 – Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish</b>

**Namangan-2022**

Fanning O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

**o'qituvchi M.T.Baltabayev**

**Taqrizchilar:**

**Q.Umarqulov**, NamDU, iqtisod fanlari nomzodi,  
dotsent

**K.Sirojiddinov**, NamDU, iqtisod fanlari nomzodi,  
dotsent

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashininig 2022 yil "\_\_\_\_"  
avgustdagi "\_\_\_\_" - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

1.	<b>O'quv materiallari .....</b>	
	Ma'ruza mashg'ulotlar uchun o'quv materiallar .....	
	Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv materiallar .....	
2.	<b>Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari .....</b>	
3.	<b>Glossariy .....</b>	
4.	<b>Ilovalar .....</b>	
	Fan dasturi .....	
	Ishchi fan dasturi .....	
	Tarqatma materiallar.....	
	Testlar .....	
	Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar .....	

# Ma'ruza mashg'ulotlar uchun o'quv materiallar.

## Mavzu: 1

**Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi ahamiyati.**

**«Qishloq xo'jaligi iqtisodi» fanining predmeti, tadqiqot usullari**

O'quv moduli birliklari

### **1.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati**

### **1.2. Agrar islohotlarning ustuvor yo'nalishlari**

### **1.3. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanning predmeti hamda vazifalari**

*Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabning vazifalari). Talaba bu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng quyidagilarni biladi:*

- *qishloq xo'jaligi respublika iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;*
- *qishloq xo'jaligi maqsadi, vazifalari va bu tarmoqdagi mavjud muammolarni o'rganadi;*
- *bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlar va ularni rivojlanishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi;*
- *fandagi foydalaniladigan tadqiqot usullarini tahlil qila oladi;*
- *mavzuga taalluqli bo'lgan xuquqiy-me'yoriy xujjatlarning mazmun-mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.*

Ushbu mavzu yangi pedagogik texnologiyalarning Interaktiv usuli yordamida talabalarga tushuntiriladi. YA'ni talabalarga, mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarqatiladi va ularning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida har ikkala tomonning ham faol ishtiroki yordamida muhokama qilinadi. Har bir muhokama qilingan savol bo'yicha o'qituvchi yakuniy xulosa qilinadi va muhokamada qatnashgan talabalar bilimiga ball qo'yiladi.

### **1.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati**

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar etarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura 25-35° ni tashkil etib, quyoshli soat 3000dan ortiq bo'lib, bir yilda birnecha marta hosil olish imkonini beradi. O'zbekistonning jami er maydoni 44.4 mln. gektar (2004 y.) bo'lib, shundan 50,8 foizini turli xildagi

qishloq xo'jalik korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo'jaliklari foydalanadilar: ularning yig'indisi mamlakat qishloq xo'jaligini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan mamlakat aholisining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini qondirishdir. Buning uchun:

- aholi birdaniga iste'mol qiladigan sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini barcha talablarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish;

-qayta ishlash sanoati korxonalarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishi lozim.

Hozirgi davrda, bu tarmoqda aholi iste'mol qilayotgan tovarlarning 85 foizidan ko'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iboratdir. 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 26,8 foizi qishloq xo'jaligida yaratilgan. SHu yilda barcha sanoat tarmoqlarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 33,1 foizi, qurilishda esa 14,5 foizi yaratilgan. Raqamlar qishloq xo'jalik tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. SHu yilda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdagi tadbirkorlar tomonidan 4732,0 mlrd so'mlik yalpi mahsulot yaratilgan. U asosan 3535,4 ming tonna paxta, 6017,1 ming tonna don, 3315,9 ming tonna sabzavot, 846,3 ming tonna meva, 996,3 ming tonna go'sht, 427,8 ming tonna sut, 671,5 ming dona qorako'l teri, 1859,9 mlrd dona tuxum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlaridan tashkil topgan.

Barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarishda respublika iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslarining 40 foizga yaqini qatnashgan.

Lekin Respublikaning qishloqlarida jami aholining uchdan ikki qismi yashaydi. Ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar 25 mln. gektarga yaqin qishloq xo'jalik erlaridan olingan, shundan 369,1 ming gektari ekinzor.

Mamlakat dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi uchun katta miqdordagi suv resurslarini talab etadi. Lekin bu talab ichki suv resurslari bilan atigi 60 foizgagina qondirilmoqda. Bunday hol Amudaryo hamda Sirdaryo xavzalaridan katta miqdordagi suv resurslarini jalb etishni talab etadi. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida 42-46 mlrd m<sup>3</sup> suv resurslaridan foydalanilmoqda. Tabiatda er va suv resurslari cheklangan, ular takror ishlab chiqarilmaydigan resurslar hisoblanadi. SHuning uchun ularning har bir gektaridan, M<sup>3</sup>dan tadbirkorlik bilan fan-texnika yutuqlarini joriy etib, yil davomida to'liq va samarali foydalanish lozim.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko'plab qishloq xo'jalik texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yonilg'i, yog'lovchi materiallar va boshqa vositalardan foydalanilmoqda. Masalan, tarmoqda 2020 yilda 78,9 mingga yaqin turli xildagi traktorlar, 22,7 mingtadan ko'proq yuk tashish mashinalari, 4,4 mingtaga yaqin g'alla yig'ishtiradigan, bir mingtaga yaqin paxta teradigan kambayinlar, ko'plab boshqa texnikalardan foydalanilgan. Tarmoq miqyosida erlarning unumdorligini, ekinlarning esa xosildorligini oshirish maqsadida 332,7 ming tonna mineral o'qitlardan foydalanilgan. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarilishi natijasida O'zbekistonning mavqei oshib bormoqda. Hozirgi davrda A va E tipdagi paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokiston davlatlaridan so'ng beshinchi o'rinni, ularni eksport qilish bo'yicha esa 2-o'rinni egallab kelmoqda. SHuning bilan birgalikda O'zbekiston jahon bozoriga nihoyatda sifatli bo'lgan qorako'l terisini, pillasini, sabzavot, poliz va bog'dorchilik mahsulotlarini olib chiqib sotmoqda. Respublikaning bu boradagi salohiyatidan to'liq foydalanilayotgani yo'q. Uni ijobiy hal etish uchun tarmoqda etishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, jahon bozoriga tayyor mahsulotlarni chiqarish lozim. Bu borada so'ngi yillarda chet el investitsiyalarini jalb etib katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni kelajakda jadal sur'atlar bilan rivojlantirish siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Hozirgi

davrda mamlakat aholisining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi yil sayin ortib bormoqda. 2004 yilda respublika aholisining jon boshiga 160 kg.ga yaqin un mahsulotlari, 135 kg. paxta xom ashyosi, 127 kg sabzavot mahsulotlari, 34 kg.dan ko'proq kartoshka, 38 kg. go'sht, 164kg. sut hamda 72 donaga yaqin tuxum ishlab chiqarilgan. Demak, mamlakatda aholining unga bo'lgan talabi qondirilgan. Kelajakda uning sifatini yaxshilashga alohida e'tibor berish talab etiladi. Lekin boshqa mahsulot bo'yicha xalqimizning meditsina me'yorlari bo'yicha talabi to'liq qondirilganicha yo'q. Bunday xol O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirilishini taqozo etadi. So'ngi o'n yillarda bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakat qishloq xo'jaligida erkin bozor iqtisodi talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatini beradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich qat'iy ishonch bilan amalga oshirilishini ta'minlab beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchillik bilan hayotga joriy etilmoqda. Masalan, er fuqarolarga umurbod meros qoldirish huquqi bilan bepul berilmoqda, fermer xo'jaliklariga esa 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga foydalanish uchun ijaraga berilmoqda. Qishloqda mulk islohoti natijasida mulkdorlar sinfi barqaror ravishda shakllanib, rivojlanmoqda.

## 1.2. Agrar islohotlarning ustuvor yo'nalishlari

Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror, erkin bozor iqtisodiyotiga, kuchli demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida respublikaning barcha sohalarida, jumladan, qishloq xo'jaligida ulkan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar davlat rahbarligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dastavval, qishloq xo'jaligida erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini mustahkam barpo etilishini, yuritilishini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan huquqiy asosi yaratilib, rivojlantirilmoqda. Bunga respublika Oliy Majlisi va Senati tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezidentning Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari yaqqol dalil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining:

- »Konstitutsiyasi»;
- »Mulk to'g'risida»gi;
- »Ijara to'g'risida»gi;
- »Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi;
- »Investitsiyalar to'g'risida»gi;
- »CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi;
- »Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi;
- »Mehnat kodeksi»;
- »Er kodeksi»;
- »Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi;
- »Tadbirkorlik to'g'risida»gi;
- »Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar) to'g'risida»gi;
- »Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi; yangi tahrirda:

-»Qishloq xo'jalik korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Qishloq xo'jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari va boshqalar, sohani isloh qilishning huquqiy asosini yaratadi.

Yaratilgan huquqiy asos negizida qishloq xo'jaligida amalga oshirilishi zarur bo'lgan tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlarning mohiyati nihoyatda muhim quyidagi holatlarni shakllantirishga qaratilgandir:

- qishloq xo'jaligini erkin bozor iqtisodiyoti talablari asosida boshqarishni barpo etish, takomillashtirish;
- mulkchilikning turli xildagi shakllarini barpo etib, samaralisini rivojlantirish;
- qishloqda bozor mulkiy munosabatlarini barpo etish, rivojlantirish va erkinlashtirish;
- tarmoqda turlicha mulkchilikka asoslangan sub'ektlarni barpo etish, ularga erkin faoliyat ko'rsatish uchun zarur sharoitlar yaratish;
- qishloqda mulkdorlar sinfini yaratish, ularning mulkiy ongini yuksaltirish;
- barcha turdagi iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish;
- aholining daromadining o'sishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish;
- tarmoqda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishini ta'minlash;
- aholini, qayta ishlash sanoatini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashni yuksaltirish, rag'batlantirish;
- aholini ijtimoiy jihatdan ta'minlanganligini yaxshilash va boshqalar;
- o'tish davrida ularni ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligida er, suv, mulk, tashkiliy-tarkibiy, moliya-kredit, soliq, narx, investitsiya hamda innovatsiya va boshqa islohotlar o'zaro bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

Er, suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida* «Er... suv... umummilliy boylikdir, ulardan oqilana foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»<sup>1</sup> - deb ta'kidlangan. Respublikaning jami er maydoniga umummilliy boylik, davlat mulki sifatida egalik qilish huquqi *O'zbekiston Oliy Majlis* zimmasiga yuklatilgan. Oliy Majlis o'z vakolatidagi er munosabatlarining ayrim masalalarini xalq deputatlari qishloq, shahar, poselka, tuman hamda viloyat kengashlari va ularning ijroiya qo'mitalari zimmasiga yuklangan. Ular er kodeksi va boshqa qonunlarga asoslangan holda erlardan oqilona samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida foydalanuvchilarga ma'lum muddatga haq to'lash evaziga foydalanish uchun bermoqdalar, cheklangan miqdordagi erlarni kim oshdi savdosida sotmoqdalar. Demak, ular er islohotini amalga oshirishga ma'suldorlar. Islohot natijasida respublikada yashayotgan fuqarolarga umrbod foydalanish uchun 650 ming gektarga yaqin er berildi. SHuning bilan birgalikda 2005 yilning 1 iyuliga 121,6 mingta fermer xo'jaliklariga 3666,4 ming gektar er uzoq muddatga (30 yildan 50 yilgacha) foydalanish uchun ijaraga berildi. Ular erdan foydalanayotganliklari uchun er solig'ini to'laydilar.

SHu davrda cheklangan miqdordagi er bino-inshootlari bilan birgalikda xususiy mulk sifatida sotilgan. Demak, er islohoti: uzoq muddatga ijaraga, umrbod foydalanishga berish hamda sotish orqali amalga oshirilmoqda.

SHuning bilan birgalikda tarmoqda mulk va unga asoslangan korxonalarini isloh qilishni amalga oshirib kelmoqda. Markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyot davrida qishloq xo'jaligida a) davlat mulki; b) kolxoz- kooperativ mulki; v) shaxsiy mulk shakllari mavjud bo'lgan. Ular tarmoqdagi jami mulkning 99,9 foizini tashkil etgan.

Mulkchilikning bu turlariga egalik qilish, ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar erkin bozor munosabatlariga mos kelmaganligi uchun hozirgi davrda respublika qishloq xo'jaligida; - davlat mulki unga asoslangan davlat korxonalarini:

-jamo'a mulki (paychilik mulkiga asoslangan shirkat xo'jaliklari):

-xususiy, shaxsiy mulk (ularga asoslangan fermer va dehqon xo'jaliklari);

-aralash mulk (unga asoslangan qo'shma korxonalar) shakllangan. Hozirgi davrda nodavlat mulkining salmog'i oshib bormoqda. SHuning bilan birgalikda, ularning qishloq xo'jalik yalpi mahsulotidagi salmog'i o'zgarib bormoqda. Jumladan, 2005 yilning boshiga kelib qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 20,4 foizini fermer xo'jaliklari, 66 foiziga yaqinini dehqon(tomora) xo'jaliklarida ishlab chiqarmoqdalar.

Respublikada qishloq xo'jalik tarmog'ini boshqarilishini samarali bo'lishligini ta'minlash maqsadida quyidagi tashkiliy islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat qishloq xo'jaligini hamda u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni boshqarish bilan:

O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi;

- Urmon xo'jaligi vazirligi;

-Meva sabzavot uzum sanoati aksiyadorlik jamiyati;

-Davlat suv xo'jaligi qurilishi qo'mitasi;

-Davlat er resurslari qo'mitasi;

- Uz go'shtsanoati aksiyadorlik jamiyati va boshqa tashkilotlar shug'ullanganlar. Bular boshqarishni bozor iqtisodi talablari asosida samarali boshqarilishini ta'minlay olmadilar. SHuning uchun hamularning faoliyatini uyg'unlashtirish natijasida boshqarilishi qulay bo'lgan ixcham vazirliklar, kompaniyalar hamda davlat o'rnitalari shakllantirildi. Hozirgi davrda O'zbekiston qishloqva suv xo'jaligi vazirligi, Respublika dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, Uzasabzavotuzum xolding kompaniyasi, Uzqishloqmashlizing kompaniyasi, Uzdonmahsulot aksiyadorlik kompaniyasi, Uzagromashservis kompaniyasi va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ularni kelajakda yanada takomillashtirish talab etiladi.

Tashkiliy islohotlar bilan birgalikda tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirilmoqda. Respublikada paxta yakkaxonligining salbiy oqibatlariga barham berish maqsadida paxta ekiladigan maydon qisqartirilib, o'rniga asosan g'alla ekila boshlandi.

SHuning natijasida g'alla ishlab chiqarish miqdori 2005 yilda 6 mln. tonnaga etkazildi. /alla mustaqilligi siyosatining amalga oshirilishi respublika aholisini don mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirdi.

Qishloq xo'jalik sub'ektlarining faoliyatlarini rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida tarmoqda moliya, kredit, soliq va baholar islohoti amalga oshirilmoqda. Mustaqillikkacha qishloq xo'jalik korxonalarini asosan davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag' hisobidan moliyalashtirilgan. Ular etishtirgan barcha mahsulotlarni davlat tomonidan markazdan o'rnatilgan xarid narxlarda asosan davlatning vakil tashkilotlari tomonidan sotib olingan. Bunda ularga o'z mahsulotlarini sotishda mustaqillik, ya'ni erkinlik berilmagan. jsha yillarda xo'jaliklarga turli xildagi kreditlarni belgilangan tartibda davlat banki bergan. Sababi boshqa banklar bo'lmagan. Qishloq xo'jalik korxonalarini 8 ta xildagi soliqlarni belgilangan stavkalarda to'lab kelganlar. Tarmoqda erkin bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida nodavlat mulkchiligiga asoslangan sub'ektlarni



moliyalashtirish tartibi tubdan o'zgardi.

Ularning faoliyatini moliyalashtirish asosan o'zlarining mablag'lari evaziga amalga oshirilmoqda. Uning manbasi bo'lib mahsulot etishtirib sotish, xizmat ko'rsatish natijasida olayotgan pul daromadlari, asosiy vositalarning eskirishi oqibatida shakllanayotgan amortizatsiya fondi, ishlab chiqarish vositalarini sotishdan olinayotgan pul tushumlari hamda ularning foydalari hisoblanadi. 2004 yildan boshlab, davlat buyurtmalari miqdoridagi paxta hamda g'allani ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mablag'lar davlat tijorat banklari tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlar evaziga o'qoplanmoqda. SHu manbalardagi mablag'lar etishmagan hollarda qishloq xo'jalik korxonalari davlat, tijorat banklarining, xorij davlatlarining nodavlat korxonalar, tashkilotlarning, xomiylarning va boshqalarning va'otincha bo'sh bo'lgan mablag'larini jalb etmoqdalar.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatini rivojlantirish uchun aksariyat hollarda o'zlarining mablag'lari etishmasdan o'olmoqda. CHet eldan qishloq xo'jaligiga jalb etilayotgan investitsiyalar jami investitsiyalarning 6,5 foizidan oshayotgani yo'q. SHuning bilan birgalikda moliya-kredit institutlaridan berilayotgan mablag' talabni qondiradigan darajada emas. CHunki qishloq xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy holati moliya-kredit institutlari tomonidan o'olaydigan shirkatlarni to'liq qondira olmaydi.

Qishloq xo'jaligida irrigatsiya-melioratsiya ishlarini, ekologik tadbirlarni amalga oshirishga ma'lum miqdordagi mablag' davlat byudjetidan ajratilmoqda. Lekin bu mablag'lar ta'kidlangan ishlarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlay olmaydi. SHuning uchun kelajakda qishloq xo'jalikdagi moliya-kredit islohotlarini yanada kengaytirib, chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan etishtirilayotgan paxta xom ashyosining hamda g'allaning 50 foiziga davlat buyurtmalari mavjud. Ularni davlat tomonidan belgilangan harid narxlarda, olgan qismini, shuningdek, boshqa mahsulotlarni erkin, kelishilgan narxlarda xohlagan miqdorda erkin sotish imkoniyatiga egalar. Bu jarayon qishloq xo'jalik mahsulotlarining ma'lum darajada erkinlashganligidan dalolat beradi. Lekin davlat xarid narxlari ichki va jahon bozoridagi narxlardan past. Ammo qishloq xo'jalik sub'ektlari tomonidan sotib olinayotgan sanoat korxonalarining mahsulotlarining erkin narxlari yil sayin yuqori sur'atlarda oshib bormoqda. Oqibatda qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi bilan sotib olinayotgan sanoat mahsulotlarining narxlari o'rtasida nomutanosiblik mavjud.

SHuning natijasida qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yaratilayotgan sof foydaning talaygina qismi sanoat korxonalarining ixtiyoriga o'tib ketmoqda. Bu masalani ijobiy hal etish uchun davlat tomonidan maqsadli dasturlarni ishlab chi'ish talab etiladi. Ular barcha qatnashchilarning o'zaro manfaatlarini e'tiborga olgan bo'lishi lozim.

Agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoq hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa ko'shmoqda. Bu haqda respublika Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisining konunchilik palatasi va Senatning qo'shma Majlisidagi ma'ruzasida quyidagi fikrlarini bildirganlar. «Avvalambor, iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi... Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yili 10,1 foizga oshdi... Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish tizimi tubdan o'zgarimoqda, fermerlik kishloqda xo'jalik yuritishning eng istibolli va samarali shakli sifatida etakchi o'rinni egallamoqda»<sup>1</sup>, - deb yakun yasagan. Lekin, erishilgan natijalar hozirgi o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmaydi. SHuning uchun ham agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan «bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish»<sup>2</sup> asosiy ustuvor vazifa ekanligini Prezident tomonidan belgilangan. Eng asosiy ustuvor vazifa mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berishdir.

Uni hal etish maqsadida qishloq xo'jaligini modernizatsiya etish natijasida tarmoqni yanada yuqori

sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlash zarur. Buning uchun qishloq xo'jaligidagi xususiy tarmoqni ustuvor darajada o'sishini ta'minlashga erishish lozim. Buning bilan birgalikda «... kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish»<sup>1</sup> agrar islohotining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Ularni ijobiy hal etilishini ta'minlashga qaratilgan aniq chora tadbirlar ham belgilangan. Jumladan, avval ta'kidlangan Vazirlar Mahkamasining 607-sonli qarorida 2005-2007 yillarda uch yil davomida rentabelligi past bo'lgan 1100ta shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklarini to'g'ri tashkil etishga katta e'tibor berish zarur. Buning uchun bo'lajak fermer xo'jaliklarining rahbarlarini to'g'ri tanlash hamda ular talab etgan er uchastkalarini belgilangan muddatlarda ajratib berish masalalarini oshkoralikda, adolatli tarzda va qat'iy tanlov, tender asosida o'tkazilishini ta'minlashga erishish lozim. «Bunda mahalliychilik, uru<sup>1</sup>/<sub>4</sub>-aymoqchilik va poraxo'rlik hollariga keskin barhamberish lozim»<sup>2</sup>, - deb alohida ta'kidlagan Respublika Prezidenti I.A.Karimov. Fermerlikni ustuvor sur'atlarda rivojlantirish uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor berish:

-davlat tuzilmalarining o'ishloqda tadbirkorlik, kichik biznes sub'ekti hisoblangan fermerlik faoliyatiga aralashuvini yanada cheklash;

-fermerlarni tander asosida tanlovini o'tkazish, ularga er ajratish ishlarini oshkoralikda, barcha qonunlar talabi asosida adolatli tarzda amalga oshirish, tender komissiyasining a'ziligiga etuk, tajribali, bilimdon, halol ma'naviyatli rahbar, mutaxassislarni jalb etish, uning faoliyatini to'liq komp'yuterlashtirish;

-fermerlarga uzoq muddatga foydalanish uchun ajratib berilayotgan erlarning sifatini yaxshilab, unumdorligini yuksalishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'z va'atida sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan miqdorda mablag'larni davlat byudjetidan ajratish imkoniyatlarini yaratib berish;

-ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilanayotgan davlat buyurtmasini rivojlangan davlatlarda o'lanilayotgan o'zaro manfaatli davlat dasturlari bilan almashtirish;

-fermerlik faoliyatini moliyalashtirish, kreditlashtirish ishlarini soddalashtirish, shartlarining yukini yumshatish, muddatlarini va stavkalarini o'zaro manfaatli bo'lishini ta'minlash;

-fermerlik faoliyatida zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini erkin sotib olish va o'z mahsulotlarini mustaqil sotish uchun bozorlarga chi'ish (na'd pullarini o'z va'atida olish) imkoniyatlarini kengaytirish;

-fermerlarga barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan sub'ektlarni tashkil etish bozor infratuzilmasini shakllantirishni, ularni moddiy resurslar va texnikalar, kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni jadallashtirish;

-fermer xo'jaliklari to'layotgan soliq va to'lovlar mazmunini, tartibini hamda stavkalarini qayta ko'rib chi'ish;

-fermer xo'jaliklariga chet el investitsiyalarini jalb etish masalalariga ko'maklashish va boshqalar maqsadga muvoffikdir.

«Biz bugun mamlakatimizni isloh qilish va yangilash maqsadida oldimizga qo'yayotgan va o'z tadbig'ini kutayotgan eng muhim ustuvor vazifalar asosan mana shulardan iboratdir»<sup>1</sup>.

### **1.3. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti hamda vazifalari**

Qishloq xo'jaligi asosiy maqsadiga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlar etishtiriladi, ishlar, xizmatlar bajariladi, ular talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Korxonalar, birlashmalar,

tarmoqlar (tuman, viloyat, respublika) miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikada tub islohotlarni amalga oshirish zarur.

Ma'muriy-buyruq bozlikka asoslangan, markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida davlat ustuvorligida qishloq xo'jaligida talabga javob beradigan, samarali huquqiy, tashkiliy iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilmoqda; mulkchilikning turli shakllari barpo etilmoqda, natijada erkin mulkiy munosabat vujudga kelmoqda, tadbirkorlikning har xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo'ldan borilmoqda, er-suv islohotlari amalga oshirilmoqda; tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (er-suv, kapital, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini xalqaro munosabatlar asosida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda, rivojlantirilmoqda.

YUqorida ta'kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda xalqimiz hamda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish taqazo etiladi. Demak, qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy asosini, takror ishlab chiqarish jarayoni rivojlantirilishini ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish va ularni hayotga joriy etish masalalarini, yo'llarini o'rgatish «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining ham predmeti, ham maqsadi hisoblanadi. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani predmeti (maqsadi)ni hal etish uchun quyidagi asosiy vazifalar echimining nazariy, uslubiy asoslarini o'rgatish lozim:

- qishloq xo'jaligining bosqichma-bosqich rivojlanishini, uning respublika iqtisodiyotidagi o'rni, ahamiyati hamda o'zgarish qonuniyatlarini aniqlashni;
- tarmoqqa davlat rahbarligini, unda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar mazmuni va mohiyatining holatini, ularni rivojlantirish yo'llarini, masalalarini ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik turlari, ularning faoliyatiga baho berish va takomillashtirish yo'llari;
- tarmoqning cheklangan er-suv, mehnat resurslari, investitsiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanish darajasiga iqtisodiy baho berish tartibini o'rganish, ularni takomillashtirish va rivojlantirish yo'llarini asoslab berish;
- qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan doimiy va o'zgaruvchan, o'rtacha xarajatlarni, ularning tarkibi va kamaytirish yo'llarini, etishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, samarali taqsimlanishini hamda pul oqimlarini o'rgatish;
- tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholarning tizimini, tarkibini, mazmunini, daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo'llarini ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashganligini va boshqa masalalarini o'rganish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O'zbekiston qanday hududda joylashgan?
2. Nima uchun respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish mumkin?
- 3.

- Qishloq xo'jaligini O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini qaysi omillar bilan isbotlaysiz?
4. Respublika aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori ma'lum muddatda o'zgarishlarni tashkil etgan va ularni qanday aniqlash mumkin?
  5. Nima uchun qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur edi?
  6. Agrar iqtisodiy islohotlar tizimiga qaysi islohotlar kiradi?
  7. Qishloq xo'jaligidagi er islohotining mazmuni qanday?
  8. Mulk islohoti qanday amalga oshirilmoqda?
  9. Moliya, kredit, soliq va baho islohotlari qanday amalga oshirilgan?
  10. Agrar iqtisodiy islohotlarning natijasi nimalarda namoyon bo'lmoqda?
  11. Qishloq xo'jaligi respublika iqtisodiyotida qanday o'rin tutadi?
  12. Qishloq xo'jaligi hamda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining maqsadi nima?
  13. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining maqsadini ifodalovchi asosiy vazifalar nimalardan iborat?
  14. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanida qanday asosiy usullardan foydalaniladi?
  15. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini bayon eting.

### Asosiy adabiyotlar

1. Abdug'aniev A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodi» fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent, TDIU, 2000.
2. R.Hakimov va boshq., «Agrosanoat majmui iqtisodi», T.: «O'zbekiston YOZuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004
3. R.H.Husanov, M.Qosimov, «Dehqon xo'jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari», T.: CHO'lpon, 2000
4. B.Xodiev va boshq., «Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari», T.:Konsauditinformnashr, 2004
5. G.V.Savitskaya, «Analiz proizvodstvenno-finansovoy deyatelnosti sel'skoxozyaystvenno'x predpriyatii», M.: INFRA, 2003
6. L.F. Suxova, N.A. Chernova, Praktikum po razrabotke biznes-plana i finansovomu analizu predpriyatiya» - M.: Finansy i statistika, 2002.
7. Utkin E. A., Frolov D. A. Upravlenie riskami predpriyatiya. - M.: TEIS, 2003
8. Kovalenko YA.N. Ekonomika sel'skogo xozyaystva. Moskva. EKMES, 1998.

9.

Yoʻldoshev Z.Y. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xoʻjaligini ustuvor rivojlantirish. Toshkent, 1996.

### Internet saytlari:

1. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)
2. [www.uhh.hawaii.edu](http://www.uhh.hawaii.edu) University of Hawaii at Hilo – Agroecology and Environmental Quality Program.
3. [www.ecfak.timacad.ru](http://www.ecfak.timacad.ru) Moskovskaya selʼskoxoʻzyaystvennaya akademiya.
4. [www.admin.ru](http://www.admin.ru) Institut Agroekonomiki i Biznesa Priamurskiy.

### Oʻzbekiston agrosanoat majmuasi va uning rivojlanishi

Oʻquv moduli birliklari

- 2.1. agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi.
- 2.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar oʻrtasidagi munosabatlar
- 2.3. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi

*Aniqlashtirilgan oʻquv maqsadlari (talabaning vazifalari). Talaba bu mavzuni oʻzlashtirgandan soʻng quyidagilarni biladi:*

- *agrosanoat majmuasi toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻladi;*
- *agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifasi va tarkibini oʻrganadi;*
- *qishloq xoʻjaligi agrosanoat majmuasining markaziy boʻgʻinini oʻrganadi;*
- *Respublika agrosanoat majmuasini rivojlantirish va takomillashtirish yoʻllari toʻgʻrisida xulosa chiqaradi.*
- *mavzuga taalluqli boʻlgan xuquqiy-meʼyoriy xujjatlarning mazmun-mohiyati toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻladi.*

Ushbu mavzu yangi pedagogik texnologiyalarning Interaktiv usuli yordamida talabalarga tushuntiriladi. YA'ni talabalarga, mavzuga taalluqli materiallar oldindan tarqatiladi va ularning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari dars jarayonida har ikkala tomonning ham faol ishtiroki yordamida muhkama qilinadi. Har bir muhkama qilingan savol bo'yicha o'qituvchi yakuniy xulosa qilinadi va muhkamada qatnashgan talabalar bilimiga ball qo'yiladi.

## **2.1. agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi,**

### **vazifalari va tarkibi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida» gi Farmoyishini qishloq xo'jaligi ishlab chiqirishga joriy etish natijasida fermer xo'jaliklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida joylarda infratuzilma ob'ektlari, jumladan 2004 yilning 1-yarim yilida 196 bank, yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash bo'yicha 236 punkt, mineral o'g'itlar bilan ta'minlash bo'yicha 205 punkt, 267 muqobil mashina-traktor parki, 222 suvdan foydalanuvchilar uyushmasi tashkil etildi. Ularning tashkil etilishi bilan agrosanoat majmuasining uchinchi bo'g'ini - qishloq xo'jaligi tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi «4 lar» tizimining tarkibi yanada rivojlantirilishi ta'minlanadi. Ular qishloq xo'jaligi tarmog'idagi korxonalariga, fuqarolarga bank xizmatlarini ko'rsatishda, xo'jaliklarni mineral o'g'itlar, yoqilg'i va moylash materiallari bilan ta'minlashda, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan ekin maydonlarini haydash, ularga ishlov berish hamda etishtirilgan hosilotni terib olish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni sifatli bajarishda o'z xizmatlarini ko'rsatmoqdalar. SHuning natijasida ayniqsa, fermer va dehqon xo'jaliklarining rahbarlarini vaqtlarini tejash imkoniyatini yaratib bermoqdalar. Bu tadbirlar kelajakda ham yanada rivojlantirilishi lozim. CHunki hozirgi davrdagi faoliyat ko'rsatayotgan infratuzilma bo'g'inlarida xo'jalik sub'ektlari talabni to'liq qondirayotgani yo'q. Muqobil mashina-traktor parklarini tashkil etishda mol-mulkni taqsimlash, muqobil MTP ga kirish badallarini aniqlashda fermer xo'jaligini ball – gektarlariga munosib ravishda hisoblash taklif etilgan. Bu tartib bizning talabga to'liq javob bermaydi. CHunki bunda ekin turlarining maydonlari e'tiborga olinmagan. Buni quyidagi misol bilan isbotlash mumkin. Ikkita har bir 30 gektar erga ega bo'lgan fermerlar mavjud. Ularning erlarini bonitet balli ham bir xil ya'ni 60 ball. SHunda ularning ball gektari bir xilda 1800 ball gektarga teng bo'ladi. Lekin birinchi fermerda 10 ga maydonga bug'doy, 20 ga esa paxta ekiladi. Ikkinchisida esa aksincha. SHunda birinchi fermer muqobil mashina – traktor parkiga, ikkinchi fermer nisbatan ko'proq murojaat etadi. CHunki unda paxta maydoni ko'proq bo'lganligi uchun texnikalar yordamida bajariladigan ishlarning xajmi ko'p. SHuning uchun yuqoridagi masalani hal etishda ekin turlarining maydonini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishi ta'minlanayotgan yillarda mamlakat aholisining o'rtacha soni bir yilda 310-320 ming nafarga yoki 1,3 foizga o'smoqda. SHu bilan birga sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish quvvatlari ham yil sayin oshib bormoqda. Bu holat respublikada xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni echish uchun eng avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga erishish, so'ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga etkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda yog'lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq

xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita, shuningdek, agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni ta'mirllovchi, xo'jalik ob'ektlarini quruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyoviy, transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi esa tarmoqda etishtirilgan xomashyolardan aholining barcha talablarini to'liq va sifatli qondira oladigan oziq-ovqat, gazlama, kiyim-bosh, oyoq kiyim va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining serqirrali faoliyatiga ham bog'liq.

YUqoridagilardan ma'lum bo'lishicha, respublika fuqarolarining tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining to'liq qondirilishi bu muammo hal etilishini ta'minlashda qatnashuvchi barcha tarmoqlarga turli xildagi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqardagian sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatuvchi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga etkazuvchi va ularni iste'molchilarga etkazib beruvchi barcha tarmoqlarning texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy bog'lanishini ob'ektiv holda taqozo etadi. SHuning uchun ular maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilib, ixtisoslashtirilib, xalq xo'jaligi miqyosida mehnat taqsimoti amalga oshirilishini ta'minlashlari zarur. YUqorida ta'kidlangan tarmoqlar yagona maqsad yo'lida o'zaro bog'lanishi natijasida respublika agrosanoat majmuasi shakllanadi. Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi – aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yuksaltiradi, farovon yashashini ta'minlaydi. SHuning uchun ham bu masalaga Respublika hukumati tomonidan alohida e'tirbor berilmoqda, ya'ni agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasida maqsadga erishish quyidagi asosiy vazifalar echilishini taqozo etadi:

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar maqsadga muvofiq holda tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'zaro uzviy bog'lanishini ta'minlash;
- majmua tarkibidagi korxonalarini barcha omillarni e'tiborga olgan xolda maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish;
- ularning ixtisoslashtirilishi va integratsiyalashuvini ta'minlash;
- samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida barcha korxonalarini zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ularda ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish orqali doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni kamaytirib, ekologik talablarga javob beradigan mahsulotlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga etkazib berib, ko'proq foyda olishni ta'minlash;
- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o'rtasida ular mahsulotlarini o'zaro samarali ayriboshlashi ta'minlanadigan narxlarning maqsadga muvofiq miqdorini ma'lum muddatlarga belgilash;
- majmuada faoliyat ko'rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular

mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko'ra rag'batlantirilishini rivojlantirish va boshqalar.

Agrosanoat majmuasi maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqqan holda uning tarkibi quyidagi 4 ta bo'g'indan tashkil topishi mumkin:

**1-bo'g'in** – agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari. Ular tarkiban qishloq xo'jalik mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; kimyo sanoati; neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya sanoati; oziq-ovqat mashinasozlik, stanoksozlik sanoati; qurilish materiallari sanoati va boshqalardan tashkil topadi. Ularning ko'lami, ayniqsa, mashinasozlik va stanoksozlik sanoati tarmoqlarining ko'lami respublikadagi barcha omillarni e'tiborga olgan holda cheklangan.

**2 – bo'g'in** – agrosanoat majmuasining asosiy tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligidan tashkil topadi. Uning barcha tarmoqlari–o'simlikchilik hamda chorvachilik tarmoqlarida sanoat tarmoqlari uchun xomashyolar (paxta xomashyosi, boshqoli donlar, kanop, zig'ir, qand lavlagi, jun, teri, kunjut, uzum), aholi iste'moli uchun esa go'sht, sut, sabzavot, poliz, meva mahsulotlari etishtiriladi.

Kishlok xo'jaligida tashliliy va boshkaruv jara|nlari Respublika kishlok va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlikning maqsadi va faoliyat ko'rsatish yo'nalishlari qilib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkmasi tomonidan quyidagilar belgilangan:

- qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha ilm-fanning barcha yo'nalishlarini jahon andozalariga moslashtirgan holda rivojlantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini e'tiborga olgan holda yagona fan-texnika siyosatini va monitoringini amalga oshirish;
- seleksiya, urug'chilik va naslchilik bilan shug'ullanadigan fanlarni tartibga solish hamda rivojlantirish;
- qishloq va suv xo'jaligida amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonini tartibga solish, uning monitoringini amalga oshirish;
- dehqonchilik, chorvachilik tizimlarini takomillashtirish, rivojlantirish, ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydigan mashinalar tizimini, texnologiyalarni barpo etish;
- erkin bozor talabini e'tiborga olgan holda ekinlarni almashlab ekish siyosatini amalga oshirish, uni ta'minlaydigan darajada ekinlarni maqsadga muvofiq joylashtirishga erishish hamda monitoringini bajarish;
- naslchilikni, urug'chilikni tashkil etish;
- chorvachilik uchun barcha servis xizmatlarini tashkil etish, ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- davlat suv kadastrini yuritish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, suv xo'jaligi ob'ektlaridan to'liq foydalanish, erlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid



- tadbirlarni amalga oshirish;
- o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish, o‘rmonlarni nazorat qilish va ulardan samarali foydalanish;
- tarmoq talabini qondiradigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularni oqilona, samarali rag‘batlantirish va boshqalar.

**3-bo‘g‘in.** U qishloq xo‘jaligini tashkil etish hamda uning rivojlanishiga xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlar, jumladan, ekinlarni, chorva hayvonlarini suv bilan ta‘minlaydigan, erlarning meliorativ holati yaxshilanishini ta‘min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo‘jaligi tarmog‘i; qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan barcha texnikalarga servis xizmati ko‘rsatadigan tarmoq; tarmoqda yirik bino-inshootlarni quruvchi, mavjudlarini ta‘mirlovchi tarmoq; tarmoqqa zooveterinariya xizmati, shuningdek, hasharotlarga, zararkurandalarga, begona o‘tlarga qarshi kurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko‘rsatadigan sohalarni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligini yoqilgi, yonilg‘i va yog‘lovchi materiallar hamda elektroenergiya bilan ta‘minlaydigan tarmoqlar ham shu soha tarkibiga kiradi.

**4-bo‘g‘in.** Unga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va iste‘molchilarga etkazib beruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, donni, kanopni, qand lavlagini, go‘sht va sutni, tamakini, sabzavot va poliz mahsulotlarini, meva, uzumni qayta ishlash, engil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini e‘tiborga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda etkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi. Respublika agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarni 1-chizmadan ko‘rish mumkin. Bunday turkumlashtirish ma‘lum darajada shartli ham hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakat agrosanoat majmuasiga 2210 ga yaqin korxonalar kiradi. Bularga fermer xo‘jaliklari ham qo‘shilsa, unda ularning umumiy miqdori 85 mingdan oshadi.

Respublika agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishda mamlakatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy hamda ijtimoiy infratuzilmalarning ham ahamiyati, ta‘siri ulkan. Ular agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning rivojlanishini ta‘minlash maqsadida bank, sug‘urta, investitsiya, soliq, lizing, sog‘liqni saqlash, ta‘lim-tarbiya, ma‘naviy, madaniy, sanat, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. SHuning uchun barcha majmualar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro manfaatli holda amalga oshirilgani ma‘qul.

## **2.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o‘rtasidagi munosabatlar**

Qishloq xo‘jaligi korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma sub‘ektlarini tashkil etilishi bilan ular o‘rtasidagi munosabatlar ham rivojlantirilishi, samarali bo‘lishi kerak edi. Afsuski, hozircha unchalik, ya‘ni talab darajasiga emas. CHunki ular ko‘rsatayotgan xizmatlarning narxlari asoslanmagan holda yuqori. Masalan, 2004 yilda 1 gektar maydonidagi paxta hosilini «Keys - 2022» rusumli kombayn yordamida terib olish uchun o‘rtacha 100614 so‘m miqdorida xizmat haqi belgilangan, bir gektar bug‘doy hosilini «Keys – 2166, 2366» rusumli kombaynda yig‘ishtirib olish uchun esa 43198 so‘m narx belgilangan. Bunday narxlar hozirgi davrda faolit ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklari uchun juda yuqori hisoblanadi. SHuning uchun ko‘pchilik fermerlar xo‘jaliklar muqobil mashina – parklariga emas, boshqalarga shu ishlarni berish uchun murojaat etmoqdalar. SHuning natijasida muqobil mashina-traktor parklaridatexnikalardan foydalanishning samaradorligi yuqori emas. SHuning uchun bu masalani qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Agrosanoat majmuasi tarkibida agrosanoat korxonalarini tashkil etish vaqti keldi. Uning tarkibi

quyidagicha bo‘lishi mumkin. Tuman yoki tumanlararo miqyosda shunday agrosanoat korxonasi tuzilsa, bir qancha masalalarni ijobiy hat etilishi ta’minlanadi:

- qishloq hududlaridagi ishsizlarni sh bilan ta’minlash;
- tayyor bozorbop mahsulotlarni ko‘proq ishlab chiqarish;
- chiqimsiz texnologiyalarni joriy etilishi;
- xo‘jaliklarning pul tushumlarini ko‘payishi va boshqalar.

### Mintaqa (hudud) agrosanoat korxonasining tarkibi va ularning aloqalari



Agrosanoat majmuasining maqsadidan kelib chiqqan holda uning ishlab chiqarish jarayonida o‘zaro uzviy bog‘langan quyidagi bosqichlar mavjud:

•

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- majmua takror ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish, texnikaviy va texnologik xizmatlarni amalga oshirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlaridan oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish;
- oziq-ovqat hamda xalq iste'moli tovarlarini iste'molchilarga etkazib berish.

Masalani to'g'ri va samarali hal etish uchun barcha bosqichlar o'rtasidagi munosabatlar hamma turdagi qonunlar asosida samarali amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Bu munosabatlarni ularning mazmun hamda shaklini e'tiborga olgan holda quyidagicha guruhlashtirish mumkin: huquqiy, tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy.

## **Mavzu: 2. O'zbekistonda agrar islohotlarning mohiyati, bosqichlari va asosiy yonalishlari**

### **REJA:**

### **KIRISH**

1. Agrar islohotlarning maqsadi, zarurati, mohiyati va huquqiy asoslari.
2. Agrar islohotlarning bosqichlari, vazifalari va asosiy yo'nalishlari.
3. Yer-suv, mulk, moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimidagi islohotlar.

### **KIRISH**

Agrar islohotlarning maqsadi, zarurati, mohiyati va huquqiy asoslari iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui bo'lib, ulardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi. Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor **infratuzilmasini** yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti; ijtimoiy islohotlar.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yildi: - totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish; - Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari ikkinchi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi. Mazkur bosqichda investisiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi.

## **1. Agrar islohotlarning maqsadi, zarurati, mohiyati va huquqiy asoslari.**

Iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui bo'lib, ulardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi. Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti; ijtimoiy islohotlar.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yildi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan

holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish Respublikada bozor

munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy

sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat

jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart -sharoit

yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari ikkinchi

bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish

imkonini berdi.

Mazkur bosqichda investisiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi.

Shu maqsaddan kelib chiqib respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi

bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni ko'rsatib berdi:

- davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash; milliy valyuta - so'mni yanada mustahkamlash;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

- mamlakatimiz iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka egaligi, aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sishning ko'p jihatdan shutarmoq ahvoliga bog'liqligi;

- respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko'pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziqovqat, kimyo sanoati,

qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtda valyuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalari chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manba ekanligi;

- mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi rolining ortib borishi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan ko'pgina respublikalar boshqa davlatlar uzoq yillar davomida erishgan yutuq va marralarga bir zumda, ya'ni "shok terapiyasi" usulini qo'llagan holda erishmoqchi bo'lishdi. Biz buning uddasidan chiqish uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solamiz, hammadan o'zib ketamiz, deganbalandparvoz gaplar aytildi, turli rejalar, hisobotlar tuzildi, ular haqida dunyoga jar solindi. Keyin ma'lum bo'ldiki, shoshmashosharlik bilan uzoqqa borib bo'lmas ekan.

Odatda bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tilar ekan, yillar davomida hal etishga to'g'ri keladigan muammolar paydo bo'ladi. Bir siyosiy tuzumdan boshqasiga o'tish uchun eng muhimi odamlarning ongini, tafakkurini o'zgartirish lozim. Bu ishni amalga oshirmasdan turib ma'muriybuyruqbozlik, subyektiv, volyuntaristik siyosatga asoslangan rejali-taqsimot tizimidan bozor iqtisodiyotiga aslo o'tib bo'lmaydi.

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlarivujudga keltiriladi. Shu sababli Respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bumulkni xususiy lashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni realshakllantirishdan iborat.

2007 yilning 30 avgustida Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida respublikamizning bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'li va oldimizda turgan vazifalarning ma'no-mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritib, bu yo'lni alohida ikki davrga ajratish to'g'ri bo'lishini ta'kidlab o'tdi.

Bu davrlarning har biri mamlakatimiz tarixida o'ziga xos va o'ziga mos muhim o'rin egallashini bildirdi. Jumladan, **dastlabki bosqich - 1991-2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri** tom ma'noda tarixiy ahamiyatga egaligi e'tirof etildi. Bu bosqichda o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq dolzarb va muhim vazifalar belgilanib, amalga oshirildi. Ikkinchi bosqich **2001 yildan 2007 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olib, u Prezidentimiz tomonidan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizasiya qilish davri deb nomlandi.**

Milliy taraqqiyotimizning hozirgi pallasida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlari yanada kuchaytirilib, pirovard strategik maqsadimiz - ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi harakatlar izchil ravishda amalga oshiriladi.

## 2. Agrar islohotlarning bosqichlari, vazifalari va asosiy yo'nalishlari.

Uzoq davr mobaynida qishloq xo'jaligiga nisbatan noekvivalent ayrboshlash mavjud bo'lib kelgan edi. Iqtisodiyotda rejali tizim amal qilgan yillarda qishloq xo'jaligidan boshqa umumdavlat ehtiyojlari uchun juda katta mablag'lar "sog'ib" olingan edi, xodimlarga esa eng kam ish haqi to'landi, uning darajasi tirikchilik minimumidan ancha past edi. Bu hol narxlar siyosati, investisiyalar, moddiy-texnika ta'minoti, mehnatga haq to'lashda yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Qishloq xo'jaligi bo'yicha hukumatning bir qancha qarorlari qabul qilinganligiga qaramay, ushbu muhim sohada ahvol tubdan yaxshilanmadi va u mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga to'sqinlik qildi. Turg'unlik yillarida qishloqda o'ta og'ir ijtimoiy vaziyat yuzaga keldi. Ko'pchilik qishloqlarda tibbiy muassasalar, shuningdek do'kon va maktablar yetishmas edi. Ko'p yerlar agrar sektor oborotidan chiqarib tashlangan va tubdan yaxshilashga muxtoj edi. Agrar sektor ishchilarining maoshlari shahardagi ishchilarning maoshlaridan 3-5 marta kam edi.

Mana shunday sharoitda O'zbekiston 1991 yilda o'z mustaqilligini e'lon qildi va tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi.

**Respublikada 1990-1991 yillarda** o'tkazilgan agrar islohot davomida aholiga 1,5 milliondan gektardan ortiq haydaladigan yer bo'lib berilgandi va bu tadbir respublika aholisining o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlashdagi ahvolini ma'lum darajada yaxshilashi lozim edi va bu tez orada o'z samarasini berdi. Bu **davrda respublikaning qishloq xo'jaligi tarmog'i quyidagi o'ziga xos xususiyatlari:**

- xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilganlik;
- yer-suv resurslarining cheklanganligi;
- ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi taraqqiyotining pastligi;
- qishloqda aholi va mehnat resurslarining o'sish sur'atlari yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga nisbatan yuqoriligi;
- yerni qashqatqich holda ekspluatatsiya qilish natijasida uning tabiiy unumdorligining pasayib ketganligi;
- agrotexnik qoidalarga rioya qilinmaslik va almashlab ekish jarayonining buzilganligi (oxirgi paytlarda almashlab ekishni barbod qilinganligi);

- yerlarning meliorativ holatining qoniqarsizligi, suv ta'minoti va drenaj quduqlarning achinarli xolatga keltirilganligi;
- suvdan oqilona foydalanmaslik maqsadida ilg'or sug'orish tizimlarini joriy etilmaganligi;
- mineral o'g'itlar va turli kimyo vositalari narxlarining o'sib borishi;
- madaniy o'g'itlar asosini tashkil qiluvchi chorvachilik sohasiga e'tiborning susayishi;
- yonilg'i-moylash materiallari narxining ortib borishi;
- qishloq xo'jaligida band mutaxassisilarni layoqati yetarli emasligi tizimning tugashiga sabab bo'ldi deyish mumkin.
- XX asrning 80-yillarigacha iste'mol tovarlarining asosiy qismi mamlakat tashqarisidan keltirilgan. Bunday holatni yuzaga keltirgan asosiy sabablari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalariga davlat mulkchiligi va iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy usullari tashkil etganligidir.
- Qishloq xo'jaligi korxonalarining qaror topgan tarkibi, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish vositalari va mahsulotning monopol boshqarilishi, moddiy-texnik resurslar taqsimotining, mehnatga haq to'lash va daromadlarning qattiq nazorat qilinishi, davlatning yuqori organlari tomonidan ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatga qo'yilgan ko'plab cheklovlar, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishdagi, ularni ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi qat'iy ixtisoslashuv pirovardida dehqonni ishlab chiqarish vositalari va mahsulotdan, eng muhimi esa - yerdan begonalashuviga olib keldi.

### Bozor iqtisodiyotiga o'tish agrar tadbirkorlikning yangi tuzilmasini yaratishni taqozo etdi.

- Islohotlarga qadar mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xo'jalik yuritishning rejali usuliga moslashtirilgan korxonalar tuzilmasiga ega edi. Aynan shu xususiyatlar qishloq xo'jaligidagi institusional va tarkibiy o'zgarishlarning maqsadlari va bosqichlarini oldindan belgilab bergan.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida islohotlarni o'tkazishda quyidagi holatlar inobatga olindi:

- yer (agrar ishlab chiqarish uchun yaroqli bo'lgan) va suv resurslarining cheklanganligi, ularning notekis taqsimlanishi va aholining o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lgan sharoitda yerga xususiy mulkchilikning joriy etilishi jamiyatda ijtimoiy beqarorlikning manbai bo'lib qolishi mumkin;
- qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini shunday mehnat vositalari bilan to'ldirib tashlanganki, ularni texnik jihatdan mayda xo'jaliklarga bo'lib tashlashning



umuman iloji yo'q, (masalan paxta yetishtirish bo'yicha texnologik majmua shunday mashinalarni ham o'z ichiga oladiki, ularni mayda oilaviy fermalarda ishlatish samarasiz bo'ladi, qishloq xo'jaligi mashinasozligining mayda xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi texnikani ishlab chiqarishga tezkorlik bilan moslashtirilishiga umid qilish befoyda edi). Bunday sharoitda mayda oilaviy xo'jaliklarni tez shakllantirish ko'p hollarda ularni almisoqdan qolgan texnologiyada foydalanishga mahkum etgan bo'lur edi;

- yer-suv resurslari raqobatli taklifning mavjud emasligi tufayli fermer xo'jaliklari yer va irrigasion tizimlarni ijaraga berish orqali daromad oluvchi ijarachilarga qaram bo'lib qolishlari mumkin edi.

Shuning uchun agrar islohotlar konsepsiyasiga binoan quyidagi institutsional o'zgarishlar ko'maklashuvi kerak edi: yerni xususiylashtirish, sovxoz, kolxozlarni tugatish va yangi ishlab chiqarishni hayotga tatbiq etish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi korxonalarini, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi va moddiy-texnika ta'minoti bilan shug'ullanuvchi korxonalarini xususiylashtirish. Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan yillarda qishloq xo'jaligi xususan g'alla mustaqilligini va umuman oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Bunga mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorini isloh qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli erishildiki, ular makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni yangidan yo'lga qo'yishda muhim omillarga aylandi.

Respublikamizning qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar iqtisodiy islohotlarning milliy O'zbek modelining eng muhim tamoyillari asosida amalga oshirildi. Bu eng avvalo, tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilishida, tarkibiy-investision siyosatni yuritishda davlatning faol aralashuvida hamda tarkibiy o'zgarishlarning ketma-ketligida o'z aksini topdi.

O'zbekistonda agrar islohotlarning asosiy maqsadlari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- aholiga kerakli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoati uchun xom ashyo yetkazib berishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash;
- iste'mol bozorlarini barqarorlashtirish;
  - qishloq aholisining ijtimoiy muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyatlarini shakllantirish;
  - agrar tarmoq samaradorligini ta'minlash va uning asta-sekinlik bilan mamlakat iqtisodiyotining barqaror bo'lishidagi hissasini oshirishga erishish.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vositalardan foydalanish lozim edi:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi mulk shakllari turlaridan samarali

foydalanish. Bunda raqobatga asoslangan mulkchilik tizimidan foydalanish,

ya'ni, qayerda qaysi mulk shakli eng ko'p samara bersa, o'sha yerda shu mulk shaklidan foydalanish tamoyili asosida ish yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Aholining daromadlarini oshishiga xizmat qiladigan agrar sektordagi mehnat unumdorligini oshirishga erishish.

3. Ish jarayonlarini mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, bu o'z navbatida mehnat sharoitlari va ularning natijalarini o'zgartiradi.

4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlovchi korxonalar ishchilari va ularni tashkil qiluvchilariga tizimli ravishda yo'l-yo'riqlar berib borish, shu bilan birgalikda ishlab chiqarishga ko'proq takomillashgan va tejimli omillardan foydalana borish, marketingni joriy qilish.

5. Ichki agrar ishlab chiqarishni himoya qilish, moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.

6. Qishloq hayoti va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi infratuzilmasini shakllantirish.

7. Agrosanoat ishlab chiqarishida bozor mexanizmini takomillashtirish va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash.

8. Baho tizimini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barcha turlarini samarali bo'lishiga erishish, maxsus fondlarni tashkil qilish orqali esa qishloq xo'jaligining kam samarali, ammo hayot uchun zarur tarmoqlari ishlab chiqarishini barqarorligini saqlab qolish.

9. Qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, ayrim hududlar ishlab chiqarishi yoki ayrim qishloq joylarini alohida yoki bir butun holda qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu orqali yer fondini, yer unumdorligini, chorva mollari genetik salohiyatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi mashinasozligi imkoniyatlarini oshirish. Qishloq xo'jaligida islohotlarga bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatdi.

Obyektiv omillarga asosan quyidagilar kiradi:

- qishloq xo'jaligini mavjudlik va tashkil etish xususiyatlari;

- agrar sektordagi bioklimat salohiyati darajasi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining katta mehnat sig'imiga ega ekanligi agrar sektorda bozor munosabatlarining to'la rivojlanmaganligi va uni qishloq aholisining qabul qilishi qiyin bo'layotganligi;

- agrar soha faoliyatini tashkil qilish jarayoniga davlatning aralashuvining zarurligi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarda subyektiv omillar ham muhim o'rin tutadi. Subyektiv omillarga kishilar, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, rahbarlar, iste'molchilar va boshqalar kiradi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida islohotlarga quyidagi umumiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

- korxonalar hajmi yiriklashuvining texnologik samarasi;
- texnik rivojlanish (biologik, mexanik, tashkiliy-texnik);
- tadbirkorlikning maxsus omillari;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish omillarini o'z vaqtida ta'sir ko'rsatishini ta'minlovchi jihatlari;
- umumiy iqtisodiy rivojlanish (talabning o'sishi, tovar va xizmatlar bahosi);
- siyosiy o'zgarishlar.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligida tarkibiy va institusional o'zgarishlar bir qancha yo'nalishlarda yuz olib borildi.

Birinchi yo'nalish - ASM ni isloh qilish bo'lib, yer islohoti kolxoz va sovxozlarni qayta tashkil qilish, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardagi korxonalarni vaqishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlovchi hamda iste'molchilarga yetkazib beruvchi korxonalarni xususiylashtirishni o'z ichiga olgan Respublikada yerga bo'lgan yangicha iqtisodiy munosabat, ya'ni asosini xususiy mulkchilik tashkil etuvchi qishloq xo'jaliklaridagi xo'jalik yuritishning yangi turlari shakllandi.

Ikkinchi yo'nalish - mahsulotni xarid qilish va sotish tizimini, ulgurji va chakana savdoni davlat tasarrufidan chiqarish. Natijada davlatning tayyorlov tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish keskin qisqardi. Sotuvning yangi kanallari, jumladan, ulgurji bozorlar, birjalar, yarmarkalar rivojlana boshladi.

Uchinchi yo'nalish - agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish tizimining o'zgartirilishi - ASMning tashkiliy tuzilmalarini va boshqaruv uslublarini qayta qurish, texnika va uskunalarni yetkazib berish bo'yicha lizing munosabatlarini hamda qishloq xo'jalik faoliyatini ixtiyoriy sug'urta qilish shakllandi.

To'rtinchi yo'nalish - qishloq xo'jalik tashkilotlarini kommunal xo'jalik va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash vazifalaridan ozod qilishga urinishlar bilan bog'liq.

Institusional o'zgarishlarni o'tkazishda quyidagilar ko'zda tutildi:

- agrar sohada ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish;
- yerga mulkchilik masalalarini hal qilish;
- bozorga asoslangan xo'jalik yuritishning turli shakllarini joriy etish va rivojlantirish;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tartibga solishning ilg'or shakllarini joriy etish;
- talab va taklifni inobatga olgan holda bozor infratuzilmasini shakllantirish hamda qishloq xo'jaligini tartibga solishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish.

### **3. Yer-suv, mulk, moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimidagi islohotlar.**

Mamlakatimizda agrar sohani isloh etishning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda yerga bo'lgan munosabatning davlat mulkchiligi asosida amalga oshirilishidir.

Mamlakatimizda yerga bo'lgan davlat mulkchiligining zarurligi tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar, murakkab irrigasiya inshootlari va sug'orma dehqonchilikning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Fermerlarga 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga foydalanish uchun ijaraga berilsa, dehqon xo'jaliklari [uchun esa](#), tekinga, umrbod oila a'zolariga meros qilib qoldirish huquqi bilan foydalanishga beriladi.

Agar 1998 yilda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi qonunga muvofiq, "Fuqarolarga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari 50 yilgacha bo'lgan, lekin 10 yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berilishi" ko'zda tutilgan bo'lsa, 2004 yilda yangi tarirda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi qonunga muvofiq, "Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'lmagan muddatga biriktirilishi" belgilab berildi.

O'tkazilgan yer islohotlari natijasida:

- 2004 yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakli joriy qilindi;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarga yer uchastkalari faqat faqat tuman xokimi tomonidan ijaraga berilishi belgilab qo'yildi;
- O'z mablag'i xisobidan yer maydonlarini o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimi belgilab berildi;
- Yer ijarasi xuquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi.

Suvdan foydalanish islohoti natijasida:

- Irrigasiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tkazildi;

- Irrigasiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tkazildi;
- Suvdan samarali foydalanish va bu borada xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida suv istemolchilar uyushmalari tashkil etildi;
- Moliya vazirligi tasarrufida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatlarini yaxshilash maqsadida maxsus jamg'arma tashkil qilindi;
- Moliya vazirligi qoshida "O'zmeliomashlizing" davlat lizing kompaniyasi tashkil qilindi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi "Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoniga binoan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish, meliorasiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish asosida qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilandi.

Mazkur farmonga muvofiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilashga qaratilgan irrigasiya, meliorasiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat byudjetidan mablag'lar ajratilmoqda. Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirish tizimini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash jamg'armasining tashkil etilishi muxim ahamiyatga ega bo'ldi. 1999 yilning boshida Moliya vazirligi qoshida qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlarning o'z vaqtida avanslanishi va hisob-kitob qilinishini ta'minlash maqsadida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar haqini to'lash uchun Fondning tashkil etilishi natijasida respublikada quyidagi dolzarb masalalar hal etildi:

- davlat ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilayotgan va yetkazib berilayotgan paxta, g'alla, sholi uchun avans to'lash va pirovard hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishi ta'minlandi;
- davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan mazkur qishloq xo'jalik mahsulotlarini avanslash va pirovard hisob-kitoblar uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan nazorat o'rnatildi;
- xarid qilinayotgan mahsulot uchun hisoblashuvlarni ta'minlaydigan, servis xizmatlarini ko'rsatadigan, texnika, ehtiyot qismlar va hokazolarni yetkazib beradigan barcha bo'g'inlar (Moliya vazirligi, banklar, tayyorlov tashkilotlari,

qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar) faoliyatini muvofiqlashtirish.

Moliya-kredit va soliq islohoti natijasida:

- davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan mahsulotlar yetishtirishni imtiyozli

kreditlash tizimi belgilanib, hosil o'rib-yig'ib olinguncha 60 [foiz qismini](#) ajratish, paxta xom ashyosini xarid qilishda joriy yil oxirigacha 90 foiz qismini ajratish tizimi joriy qilindi;

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun barcha turdagi soliqlar

umumlashtirilib, yagona yer solig'i joriy qilindi;

- texnika vositalari va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalarini lizingga berish

tizimi joriy etildi;

- yer ijarasi huquqini va bulg'usi hosilni garovga qo'ygan holda kredit olish

tizimi joriy etildi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq tarmoqni rivojlantirishning shunday strategiyasi belgilab qo'yildiki, uning asosida qishloq xo'jaligini diversifikasiyalash, paxta yakkahokimligiga barham berish, oziq - ovqat tovarlari bilan o'z - o'zini ta'minlash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni rivojlantirish yotardi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasining ulushi izchillik bilan pasaytirib borilgan holda (paxta va g'alladan boshqa) qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha turlari uchun bekor qilindi.

Narx-navo islohoti natijasida:

- davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom ashyosining narxini jaxon bozoridagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi;

- davlat omonidan sotib olinayotgan g'alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi;

- boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

Ishlab chiqarish tarkibi va samaradorligi sezilarli ravishda mulkiy

huquqlarning taqsimlanishiga bog'liqdir. Bu borada Respublikamiz Prezidenti

I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan edi: "Haqiqiy mulkdor bo'lish - haqiqiy xo'jayinlik tuyg'usini his etish demakdir. Bu o'z navbatida insonning yashirin kuch-g'ayratini, tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etadi, uni tashabbuskor va omilkor qiladi, o'z korxonasini rivojlanish istiqboli haqida qayg'urib, ishlabchiqarish samaradorligini oshirib boradi, oladigan foydasi ham xodimlarningish haqi ham ko'payadi". Shuning uchun, qishloq xo'jaligini isloh qilishga qaratilgan chora tadbirlar tizimida qishloqda birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan mulk islohoti natijasida:

- tarmoqda mulk "davlat mulki" va "jamo'a mulki" (shirkat va jamoa xo'jaliklari) shaklidan "xususiy mulk" (dehqon va fermer xo'jaliklari) shakliga o'tkazildi;
- jamoa mulki bo'lgan bog' va tokzorlar, chorva fermalari va mollari, texnikalarhamda boshqa mol- mulklar xususiylashtirildi;
- xususiy mulklarni himoya qilish va ularning rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlash bo'yicha me'yoriy xujjatlar qabul qilindi.

Respublikamizda 1991 yilda 1294 ta jamoa xo'jaligi, 1868 ta fermer xo'jaligi va 2,1 million nafar xususiy tomorqa uchastkalarining egalari mavjud edi. Qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanmish yerlarni haqiqiy egalari bo'lmish fermer va dehqonlarga berilganligi tufayli qishloqda mulkchilik shakllari o'zgardi. Shunday qilib, shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatining asoslarini shakllantirishda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning yangi, milliy an'nalardan kelib chiqqan holda me'yorlarni yaratildi. Qonunda belgilangan me'yorlarda ko'p ukkladli agrar iqtisodiyotning shakllanayotgan har bir subyekti yerga va mulkka egalik huquqi, mehnatni tashkil qilish shakllari bo'yicha bir biridan farq qiluvchi xususiyatga ega. Demak, yerga va suvdan foydalanish obyektlariga davlat mulkchiligi saqlanganini e'tiborga olgan holda, qonunchilik me'yorlari asosida belgilab olingan qishloqda daromad keltiruvchi mulkka (kapitalga) egalik qiladigan haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- S aksiyadorlik, ijara va boshqa turdagi xo'jaliklarni pay asosida qishloq xo'jaligi kooperativlariga (shirkat xo'jaliklari)ga aylantirish;
- S uzoq muddatli ijara shartnomasi asosida berilgan yer uchastkalarida fermer xo'jaliklarini tuzish;
- S meros qilib qoldirilgan umrbod egalikdagi yerlari bo'lgan dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish;
- S xo'jalik a'zolariga yerni uzoq muddatli ijara huquqi bilan foydalanishga berish.

Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirishning yuqorida ko'rsatilgan yo'llaridan boshqa

yo'llari ham mavjud bo'lib, ular o'z sarmoyasi hisobiga chet el investorlari bilan qo'shma korxonalar tashkil etish hamda matl ubot kooperativlari, maslahat va auditorlik firmalari, axborot-maslahat markazlari, reklama agentliklari va hokazo qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmasini takomillashtirishdir. Lekin bu boradagi imkoniyatlar hali to'laligicha ishga solingani yo'q.

Qishloq xo'jaligidagi bozorga xos o'zgarishlar resurslardan samarali foydalanishdan, talabning to'lov qobiliyatini to'laroq qondirishdan iqtisodiy manfaatdor bo'lgan tuzilmalarni shakllantirishni taqozo etdi. Shuning uchun qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi boshqaruvning yer-suv va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay oladigan yangi tashkiliy shakl va uslublarini izlab topishdir.

### 03-MAVZU.AGROSANOAT MAJMUASINING MOXIYATI, TARKIBI VA VAZIFALARI

#### *Reja:*

1. *Agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari va tarkibi.*
2. *Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining uzaro ishlab chiqarish munosabatlari.*
3. *Agrosanoat majmuasini mamlakatni oziq-ovqat xafsiziligini ta'minlashdagi o'rni.*
4. *O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasini boshqarish tizimi.*

Agrosanoat majmuasi - bu qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarishga xizmat kiluvchi va qishloq xo'jalik maxsulotlarini saklash, qayta ishlash, iste'molchiga yetkazib byerish bilan bog'lik bo'lgan iktisodiyot tarmoqlari majmuasidir.

Agrosanoat majmuasining maqsadli faoliyati minimal xarajatlar xisobiga mamlakat axolisini oziq-ovqat maxsulotlari va sanoatni xom-ashyo bilan tularok kondirishga karatilgan.

Respublikada agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog'lik bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chikilib, xayotga bosqichma-bosqich joriy etilmokda.

Respublika agrosanoat majmuasida:

- agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarning tashqiliy, texnologik, texnikaviy, iktisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash;



- majmua tarkibidagi korxonalarining faoliyat yunalishlarini e'tiborga olgan xolda ularni maqsadga muvofik okilona joylashtirish;
- majmua tarkibidagi korxonalarining ixtisoslashuvi va integratsiyalashuvini ta'minlash;
- majmua tarkibidagi korxonalarni zamonaviy texnikalar bilan jixozlash, ilg'ortexnologiyalarni joriy etish;
- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, Mehnat) tadbirkorlik bilan okilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish va kimyolashtirish;
- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar urtasida ularning maxsulotlarini uzaro samarali ayriboshlanishini ta'minlaydigan narxlarni belgilash;
- majmuada faoliyat ko'rsatayotgan raxbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular Mehnatlarining mikdoriga, pirovard natijasiga kura 0 ragbatlantirilishini ta'minlash borasida katta ishlarni amalga oshirish.

Yerkin bozor iktisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ta'minlanayotgan yillarda mamlakat axolisining urtacha soni bir **yilda 450-500 ming nafarga yoki 1,48 foizga usmokda**. SHu bilan birga sanoat korxonalarini soni va ishlab chiqarish kuvvatlari xam yil sayin oshib bormokda. **Bu xolat respublikada xomashyo, oziq-ovqat maxsulotlari va xalk iste'moli mollarini ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda**. Bu muammolarni yechish uchun eng avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'lik bo'lgan xizmat ko'rsatish xamda qayta ishlash tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga yerishish, sungra tayyor oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chikaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashqiliy, texnikaviy, texnologik, iktisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

#### **Agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi:**

**-agrosanoat majmuasi korxonalarini intensiv rivojlantirish va shu asosda pirovard maxsulot ishlab chiqarishni ustirish;**

**-barcha tarmoq va korxonalarda mavjud resurslar potentsialidan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;**

**otashqi savdo oborotining xajmini oshirish, tarkibini kengaytirish;**

**-mamlakatning oziq-ovqat muammosini xal kilish va ozik-ovkatga bo'lgan iste'molni ilmiy asoslangan me'yorlarga yakinlashtirish;**

**-axolini qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat bo'lmagan tovarlarga bo'lgan talabini kondirishdan iborat.**

Agrosanoat majmuasining maqsad xamda vazifalaridan kelib chikkan xolda uning

tarkibi quyidagi 4 ta bo'g'indan iborat:

**1-bo'g'in - agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chikaruvchi** qishloq xo'jaligi mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; **kimyo sanoati**; **neft maxsulotlari sanoati**, mikrobiologiya sanoati; oziq-ovqat mashinasozlik, stanoksozlik sanoati; **kurilish matyeriallari sanoati** va boshqalardan iborat bo'lib, bu sanoat korxonalarining asosiy maqsadi - agrosanoat majmuasi tarkibidagi, xususan, qishloq xo'jaligi va unga irrigatsiya-melioratsiya, texnika ta'minoti va ta'mirlash, kimyolashtirish, zoovetyerinariya, elektrlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi xamda qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash sanoati, don maxsulotlari, meva, sabzavot, uzum sanoati, gusht-sut sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini va nixoyat, tayyor maxsulotlarni yetkazib byerishda zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari (mashina, traktor, stanok, kimyoviy vositalar, yokilgilar, ozuqa moddalari) bilan ta'minlash orkali ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik va korxonalarining moddiy-texnika bazasini barpo etishga ulkan xissa kushish. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining talab darajasida shakllantirilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, mexanizatsiyalashtirilib, elektrlashtirilib, jonli Mehnat sarfi kiskarib, Mehnat unumdorligining kutarilishi ta'minlanadi. Ular shu tarmoqlardagi Mehnat jarayonining uzgarishiga ta'sir etadi, ya'ni oddiy Mehnat industrlashgan Mehnatga aylanib boradi. Agrosanoat majmuasining bu bo'g'ini tarkibidagi tarmoqlarda minglab korxonalar faoliyat ko'rsatib, jami ichki maxsulotning 65-70 foizi yaratilmokda.

**2-bo'g'in - agrosanoat majmuasining asosiy tarmogi xisoblanib qishloq xo'jaligidan tashqil topadi. Qishloq xo'jaligining dexkonchilik xamda chorvachilik tarmoqlarida sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo (paxta, don, kanop, zigir, kand lavlagi, jun, tyeri, kunjut, uzum), axoli iste'moli uchun esa ozik ovkat maxsulotlari( gusht, sut, sabzavot, poliz, meva, kartoshka maxsulotlari) yetishtiriladi.**

Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosiy, ya'ni markaziy tarmogi xisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chikaruvchi, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi, yetishtirilgan qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlovchi, saklovchi xamda iste'molchilarga yetkazib byeruvchi barcha tarmoqlar faoliyatiga bog'lik. Ular qishloq xo'jalik korxonalarini barcha turdagi texnikalar, kimyoviy vositalar, yokilgi, kurilish matyeriallari, stanoklar bilan uz vaktida ta'minlab, mavjud qishloq xo'jalik texnikalarini arzon va sifatli ta'mirlab, tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydigan xizmatlarni ko'rsatib, unda yetishtirilgan maxsulotlarni yigib-tyerib, qayta ishlab, iste'molchilarga sifatli xolda yetkazib byersalar, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga katta xissa kushgan bo'ladilar. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi natijasida majmua tarkibidagi tarmoqlarning xam kengayishi ta'minlanadi, ya'ni ishlab chiqarish

vositalariga bo'lgan talab ortadi. Bu talabni kondirish uchun sanoat tarmoqlari intensiv faoliyat ko'rsatish bilan ishlab chiqarish xajmining kengayishga xam yerishiladi. Tarmoqda qishloq xo'jalik maxsulotlari xajmining barqaror ravishda usishi ularni qayta ishlovchi tarmoqlar samarali faoliyat ko'rsatishini talab etadi. Demak, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'lik. SHu sababli respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofik tashqil etish va zamon talabi asosida boshqarishga aloxida e'tibor byerilmokda.

**3-bo'g'in.** Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi, saklovchi va iste'molchilarga yetkazib byeruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, don, kanop, kand lavlagi, gusht va sut, tamaki, sabzavot va poliz maxsulotlari, meva, uzumni qayta ishlash, yengil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini e'tiborga olgan xolda tayyor maxsulotlarni ulgurji va chakana xolda yetkazib byeradigan savdo tarmoqlari kiradi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmining ko'payishi mos ravishda pirovard maxsulotni tayyorlash, saklash, tashish, qayta ishlash va sotish buyicha tarmoqlarni rivojlantirishni talab kiladi, bu esa agrosanoat majmuasining 3- bo'g'inining rivojlanishi orkali amalga oshiriladi.

**4-bo'g'in.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashqil etish xamda uning rivojlanishiga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar, ya'ni qishloq xo'jaligi infratuzilmasi bo'lib, bu soxalarga:

- ekinlarni, chorva xayvonlarini suv bilan ta'minlaydigan, yyerlarning meliorativ xolatini yaxshilanishini ta'min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo'jaligi tarmogi;
- qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan barcha texnikalarga servis xizmati ko'rsatadigan tarmoq;
- tarmoqda yirik bino-inshootlarni kuruvchi va mavjudlarini ta'mirlovchi tarmoq;
- tarmoqqa zoovetyerinariya xizmati, shuningdek, xashoratlarga, zararkunandalarga, begona utlarga karshi kurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko'rsatadigan tarmoq;
- qishloq xo'jaligini yokilgi va yog'lovchi matyeriallar xamda elektroenyergiya bilan ta'minlaydigan tarmoqlar va shu kabi ko'plab tarmoq va soxalar kiradi.

Bu tarmoqlar qishloq xo'jaligiga barcha turdagi ish va xizmatlarni uz vaktida, sifatli ko'rsatishlari natijasida turli xildagi qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirishda katta xissa kushadilar. Texnikalarni ta'mirlab, ekinlar ekiladigan maydonlarni agrotexnik muddatlarda sifatli xaydab, ekishga tayyorlab, ekib, unib chikkan o'simliklarga ishlov byerib, yetishtirilgan xosilni belgilangan muddatlarda sifatli yigib olish natijasida qishloq xo'jalik maxsulotlarining mikdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilashga agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi bu bo'g'in korxonalari bevosita katta ta'sir ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi korxonalarining maxsulotlarini okilona, uz vaktida iste'molchiga yetkazib byerish natijasida esa qishloq xo'jalik korxonalari foyda mikdorini

ko'paytirishga yerishishlari mumkin.

Bu tarmoq tarkibidagi korxonalar qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish natijasida uz ixtiyoridagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyaviy yutuklar natijasida qishloq xo'jaligida olib boriladigan barcha turdagi ish va xizmatlarni mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini, elektrlashtirilishini xamda kimyolash-tirilishini ta'minlab, jonli Mehnat sarfini kamaytirish evaziga Mehnat unumdorligini oshishiga, sarf xarajatlarning kamayishi xisobiga ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi bu bo'g'in tarmoqlarining asosiy maqsadi - qishloq xo'jaligi korxonalariga barcha turdagi xizmatlarni, ishlarni muddatida, sifatli bajarishdir.

Respublika agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishda mamlakatda mavjud bo'lgan iktisodiy xamda ijtimoiy infratuzilmalar ulkan ahamiyatga ega. Ular agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning rivojlanishini ta'minlash maqsadida bank, sugurta, investitsiya, solik, lizing, soglikni saklash, ta'lim-tarbiya, ma'naviy, madaniy, san'at, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. SHuning uchun barcha majmualar urtasidagi munosabatlar uzaro manfaatli xolda amalga oshirilgani ma'kul.

Yerkin bozor iktisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ta'minlanayotgan yillarda mamlakat axolisi urtacha bir yilda 1,48 foizga usmokda. SHu bilan birga sanoat korxonolari soni va ishlab chiqarish kuvvatlari xam yil sayin oshib bormokda. Bu xolat respublikada xomashyo, oziq-ovqat maxsulotlari va xalk iste'moli mollarni ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni yechish uchun eng avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'lik bo'lgan xizmat ko'rsatish xamda qayta ishlash tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga yerishish, sungra tayyor oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chikaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashqiliy, texnikaviy, texnologik, iktisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

Qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, minyeral ugitlar, yokilgi xamda yog'lovchi matyeriallar, kurilish matyeriallari, ozuqa moddalari bilan tulik va mutanosib ravishda ta'minlab, mustaxkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kyerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chikaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita, shuningdek, agrar soxaning ravnaki unga xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni ta'mirlovchi, xo'jalik ob'ektlarini kuruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyoviy, transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga xam bog'likdir.

Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligining yagona takror ishlab chiqarish jarayoniga birlashgan aralash tarmoqlar majmuasi va ular urtasidagi munosabatlarning sifat jixatdan yangi darajadagi kurinishidir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi tarmoqda yetishtirilgan xom - ashyolar bilan axolining barcha talablarini tulik va sifatli kondira oladigan ozik- ovkat, gazlama, kiyim-bosh, oyok kiyim va boshqa maxsulotlar ishlab chikaruvchi sanoat tarmoqlarining serkirrali faoliyatiga xam bog'lik.

**Agrosanoat majmuasining shakllanish asosi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining integratsiyasi natijasi xisoblanadi.**

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining uzaro ishlab chiqarish munosabatlari qishloq xo'jaligi, unga ishlab chiqarish vositalari yetkazib byeradigan, xizmat kiladigan va uning maxsulotini iste'molchiga yetkazib berish bilan shugullanadigan barcha tarmoqlarning iktisodiy -ijtimoiy alokalaridan iborat.

**Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy Mehnat taksimotining chukurlashuvi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi.** Qishloq xo'jaligining tarmoqlararo mustaxkam alokasi xam shu asosda o'rnatiladi. Ana shundan, ishlab chiqarish

- texnikaviy, agrokimyo xizmati, meliorativ ishlar, vetyerinariya xizmati kabi tarmoq va korxonalarining vazifalari kelib chikadi.

Qishloq xo'jaligini agrosanoat majmuasining boshqa tarmoqlari bilan maxsulotni sotish va qayta ishlash soxasidagi alokalari yanada kuchayadi.

Ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tizimining samarali faoliyati resurslar ta'minotiga, ular kulamining kengayishiga, maxsulot ishlab chiqarish xajmi buyicha tarmoqlarning moslashuviga, pirovard natijani maqsad kilib kuygan agrosanoat majmuasi tarmoqlarining faoliyatiga bog'lik..

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chikariladigan xar bir oralik maxsulotni ishlab chiqarish xajmi, shu maxsulotni iste'mol kiluvchi korxonona va tashqilolarning talabi bilan aniklanadi, bu bilan butun bir majmuani rivojlan- tirishning zaruriy mutanosibliigi va bir tekisligi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chikaruvchi tarmoqlar, uz maxsulotlarini qishloq xo'jaligiga va qayta ishlovchi korxonalarga yetkazib byeradilar. Ularning e'tibori nafakat majmuaning xar bir bo'g'inining talabini kondirishga, balki ularning agrosanoat ishlab chiqarishining bosqichlari buyicha nisbatlarining optimalligini ta'minlashga xam karatilgandir. Aks xolda, agrosanoat majmui rivojlanishida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini tashish, saklash va iste'molchiga yetkazib byerish jarayonida katta yukotishlarga olib keluvchi nomutanosiblik kelib chikar edi.

Qishloq xo'jaligi maxsulotini tayyorlashni, saklashni va qayta ishlashni amalga oshiruvchi agrosanoat majmui uchinchi bo'g'inining tarmoqlarini moddiy- texnika bazasini takomillashtirilishi talab etiladi. Ishlab chiqarish vositalarini yetkazuvchi tarmoqlar dexkonchilik va chorvachilik bilan tarmoqlararo alokalarda optimal nisbatga rioya qilishlari zarur.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari urtasidagi iktisodiy alokalar maxsulot va xizmatlarga ob'ektiv o'rnatiladigan baxolarning optimal darajasi yordamida amalga oshiriladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari baxolari urtasidagi fark natijasida me'yoriy iktisodiy alokalar va ishlab chiqarish xajmining usishi va pirovard maxsulotni sotish kiyinlashadi.

Agrosanoat ishlab chiqarishida tarmoqlar va ular tarkibidagi korxonalarining uzaro alokadorligi:

-agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlari tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish;

-qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi;

-qishloq xo'jaligi xom-ashyosidan tayyorlanadigan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;

-tezkor ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ishlab chiqarish-texnikaviy va texnologik xizmat ko'rsatish;

-pirovard maxsulotni sotish bilan belgilanadi:

U yoki bu tarmoqni agrosanoat majmuiga tegishlilikini aniklash ancha murakkab masala bo'lib, sanoatning ayrim tarmoqlari qishloq xo'jaligi yunalishida faoliyat ko'rsatadi. Ko'pchiligi esa qishloq xo'jaligi uchun kisman maxsulot ishlab chikaradi. Agrosanoat majmuini yagona bir tizim shaklida xarakterlab shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi sanoat, kurilish, transport, savdo va xalk xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan doimo mustaxkam alokada bo'lib kelgan.

Respublika fukarolarining tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini tulik kondirilishi barcha tarmoqlarga turli xildagi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chikaradigan sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatuvchi, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlab, tayyor maxsulot darajasiga yetkazuvchi va ularni iste'molchilarga yetkazib byeruvchi barcha tarmoqlarning texnikaviy, texnologik, iktisodiy xamda ijtimoiy bog'lanishini ob'ektiv xolda taqozo etadi. SHuning uchun ular maqsadga muvofik ravishda joylashtirilib, ixtisoslashtirilib, xalk xo'jaligi miqyosida Mehnat taksimotini amalga oshirilishini ta'minlashlari zarur. Tarmoqlar yagona maqsad yo'lida uzaro bog'lanishlari natijasida respublika agrosanoat

majmuasi shakllanadi.

Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi - axolini sifatli oziq-ovqat va xalk iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iktisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida xal etilishi axolining turmush darajasini yuksaltiradi, farovon yashashini ta'minlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatni mavjud salohiyatlar, resurslar bilan ta'minlash va axolini ichki va tashqi sharoitlarga bog'lik bo'lmagan xolda, ilmiy jihatdan asoslangan tibbiy me'yorlar darajasida oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlashni kafolatlashdir.

Oziq-ovqat bilan uzini-uzi ta'minlash - bu davlatning ichki extiyojini ozik-ovkatning barcha turlari xamda aloxida maxsulot turlari bilan ta'minlash, koplash kobiliyatidir.

Oziq-ovqat xavfidan keladigan iktisodiy zarar bevosita va bilvosita yukotishlardan iborat bo'lib, u quyidagilar bilan bog'lik:

-ta'minlovchi tarmoqlar va agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatlarining buzilishi;

-oziq-ovqat maxsulotlari baxolarining oshishi buyicha import tulovlari;

-Mehnatga yarakli axolining kamayishi xisobiga Mehnatning iktisodiy samaradorligining pasayishi;

-oziq-ovqat karamliligi va oziq-ovqat mustakilligi.

Mamlakatda oziq-ovqat karamliligi shunday xolatda vujudga keladiki, unda jamiyat uzining oziq-ovqat xavfsizligini uzi mustakil xal kilish kobiliyatiga ega bo'lmaydi. U qishloq xo'jaligi, sanoat va transport kabi tarmoqlar majmuining buzilishiga, shuningdek zaruriy oziq-ovqat maxsulotlari importiga mamlakat iktisodiyotining tulov kobiliyatining yukligi asosiy sabab bo'ladi. Oziq-ovqat karamliligining paydo bo'lishi uchun asosiy sharoit davlatning xususiy ishlab chikaruvchilarni kullab kuvvatlamasligi va oziq-ovqat maxsulotlari importining xaddan tashkari ko'payib ketishida ifodalanadi.

Oziq-ovqat mustakilligi bu axolini o'rnatilgan ovkatlanish me'yorlari buyicha ozik-ovkatlar bilan ta'minlash uchun enyergiya, yyer resurslari, qishloq xo'jaligi mashinalari, moddiy resurslarning strategik zaxiralarning mavjudligidir. Uni amalga oshirish uchun agrosanoat majmuasi axolining asosiy oziq-ovqat maxsulotlari turlariga bo'lgan talabini zaruriy mikdorda va assortimentda mustakil ishlab chiqarish, saklash, qayta ishlash va ta'minlashga kodir bo'lishi kyerak.

Axolini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga xam bog'lik. CHunki mamlakat mikyosida oziq-ovqat maxsulotlari ishlab



chiqarish xajmi unga bo'lgan mamlakat extiyojini tashqi omillarga (xorijiy davlatlarga) bog'lanmagan xolda ta'minlashi lozim.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish mablaglari xamda ularning uzok muddat ishlashini ta'minlaydigan tarmoqlarni uz ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga bevosita qishloq xo'jaligiga xizmat kiluvchi tarmoqlar: ishlab chiqarishga yunaltirilgan transport, ta'mirlash ustaxonalari, ombor xo'jaliklari, kommunikatsiya tizimi va telegraf, aloka, elektroenergiya uzatish liniyalari, texnik xizmat stantsiyalari, ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyalari, xisoblash markazlar kiradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishiga ko'pgina omillar ta'sir etadi. Ularning ichida tuproq-iklim sharoiti, xudud rel'efi, suv bilan ta'minlanishi, yyer xududi konfiguratsiyasi, yo'l xolati, korxonaning joylashishi, ishlab chiqarish ob'ektlarining joylashishi, kullanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarishni ixtisoslashishi darajasi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq axolisining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini kelgusida yaxshilash xisoblanadi.

Ijtimoiy turmushga ta'sir utkazuvchi infratuzilmaning asosiy jixatlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chikaruvchi kuchlarni okilona joylashtirish;
- axoli Mehnat faollii kulamini kengaytirish;
- Mehnat resurslari safarbarligini tartibga solish;
- bush vakt fondini boyitish va undan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash uchun imkoniyat yaratish;
- ishchi kuchini takror yetishtirishga ta'sir etish.




Ijtimoiy infratuzilma murakkab vazifalar tizimidan iborat bo'lib, unda barcha unsurlar uzaro bog'langanki, ulardan birining rivojlanishdan ortda kolishi, boshqalaridan samarasiz foydalanishga sabab bo'ladi. SHu boisdan mintaka ijtimoiy infratuzilmasining majmuaviy tarzda rivojlanishini ta'minlash muhim vazifadir.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali Mehnat jarayonida bo'lgani kabi, ishlovchi kuchini takror ishlab chiqarishda xam zarur shart - sharoitlar yaratishni talab etadi. Bu vazifani bajarishga ijtimoiy infratuzilma bo'limlari va xizmat soxalari yunaltirilgan.

Ijtimoiy infratuzilma uzida Mehnat jarayonida ishlovchilarni samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart - sharoitlarni yaratishga yunaltirilgan jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bir kismini aks ettiradi. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq axolisining ijtimoiy - maishiy sharoitlarini kelgusida yaxshilash xisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma soxalari maxsulot yaratishda bevosita ishtirok etmaydi, lekin ular ishlab chiqarish jarayonining me'yoriy rivojlanishi uchun shart - sharoitlarni ta'minlaydilar.

Ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning zarur malakali kadrlarga bo'lgan talabini kondirishni tartibga soladi, kadrlarni takror ishlab chiqarishga va qishloq xo'jaligiga bog'lanib ketishiga kumaklashadi, Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlaydi. Ijtimoiy infratuzilma bo'limlari nafakat korxonalar, balki ularning oila a'zolari kommunal - maishiy talablarini kondirish uchun xam shart - sharoitlarni yaratishda katnashadi.

Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini tashqil etish va maqsadga muvofik ishlab turishi ular joylashgan qishloq xo'jalik korxonasining iktisodiy rivojlanganlik darajasiga bog'lik bo'lib kolmokda. Xo'jaliklar ijtimoiy infratuzilma bo'limlarini shakllantirishga zarur moddiy, pul va Mehnat resurslarini ajratadilar.




7.2-rasm. Ishlab chiqarish infratuzilmasi

Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga kommunal uy - joy xo'jaliklari, meditsina va maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ovkatlanish tashqilotlari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, Mehnat muxofazasi buyicha xizmat soxalari, sport-sog'lomlashtirish tashqilotlari, ishlovchi - xizmatchilarga xizmat ko'rsatuvchi transport, aloka va axborot xizmati bo'limlari kiradi.

Maqsadli yunalishi, shakllanish manbai, xududiy joylashuvi va ishlab chiqarish jarayonida katnashishiga kura, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari xizmat soxalarini 2 guruxga bo'lish mumkin.

Birinchi guruxga korxonalar xisobidan barpo etilgan xo'jalik bo'limlarida joylashgan va Mehnat sharoitlari, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayonida ishlovchilarning xordik olishini, sharoitlarni yaxshilashga karatilgan ob'ektlar tegishlidir. Bu gurux tarkibiga brigadalaridagi va chorva mollari fyermalaridagi maishiy inshootlar, bo'limlardagi umumiy ovkatlanish punktlari (bufetlar, oshxonalar), soglikni saklash, madaniyat va xordik ob'ektlari (profilaktoriylar, vrach kabinetlari, o'quv zallari va boshqalar), yonginga karshi punktlar kiradi. Ular chorvachilik majmualarida, fyermalarida, ustaxonalarida, traktor parklarida, dala stantsiyalarida joylashtiriladi.



7.3-rasm. Ijtimoiy infratuzilma


Ikkinchi guruxga qishloq xo'jalik korxonalarining axoli punktlariga joylashgan, axolining kommunal uy-joy talablarini kondirish uchun muljallangan va koida buyicha davlat resuslari xisobiga va katta korxonalar

va agrosanoat uyushmalarining maxsus vositalari xisobiga tashqil etilgan ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini, sog'likni saklash, sport, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat uylari va klublar, savdo korxonalarini ta'alluklidir.

Ijtimoiy infratuzilmaning ushbu ob'ektlari qishloq joylaridagi axolining, Mehnat soxasidagi va ijtimoiy axvolidan kat'iy nazar xammasiga xizmat ko'rsatishga

yunaltirilgan.

Qishlok xo'jaligida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga kommunal uy - joy xo'jaliklari, meditsina va maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ovkatlanish tashqilotlari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, mex,nat mux,ofazasi buyicha xizmat soxdlari, sport-soglomlashtirish tashqilotlari, ishlovchi - xizmatchilarga xizmat ko'rsatuvchi transport, aloka va axborot xizmati bo'limlari kiradi.



7.4-rasm. Bozor infratuzilma ob'ektlari

Bozor infratuzilmasi - maxsulot (xizmatlar) ishlab chikaruvchini iste'molchi bilan yagona bozor makonida birlashtirib, ishlab chiqarish va iste'mol kulamlari urtasidagi ziddiyatni bartaraf etuvchi va uning barcha ishtirokchilari uz oldilariga kuygan maqsadlariga yerishishlarini ta'minlovchi muassasalar va vositachilik tarkiblari tizimidir.

Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli mux,itsiz, tovar-pul

va mexnat resurslari bozorlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar urtasida uzaro alokani ta'minlashi kerak bo'lgan infratuzilmasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Moliya, bank-kredit tizimlari bilan bog'lik masalalarni xal qilish, sugurta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari xamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish zarur.

Bozor infratuzilmasining asosiy maqsadi tovar va xizmatlarni ishlab chikaruvchilardan iste'molchilarga yetib borishi va ularning ehtiyojlarini kondirish borasida kulay sharoitlar yaratish orkali iktisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishini oshirishga karatilgan.

Bozor infratuzilmasi respublikada vujudga kelayotgan umummilliy va mintakaviy bozorlarning ishlashini, davlatlararo iktisodiy munosabatlarning tartibga solinishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda bozor infratuzilmasi sub'ektlari asosan shakllantirib bo'lindi, ularning huquqiy-institutsional asoslari yaratildi. Xrzirgi kunda respublikada ikki pogonali bank tizimi, sugurta kompaniyalari, tovar va xom ashyo birjalari, sarmoya fondlari tarmogi, fond va kuchmas mulk birjalari, Markaziy depozitariy va ikkinchi pogona depozitariylari, lizing va konsalting kompaniyalari, Savdo-sanoat palatasi, Dexkon va fermer xo'jaliklari uyushmasi faoliyat ko'rsatmokda xamda ularning faoliyat yunalishlari bozor talablariga moslashtirilmokda.

Iktisodiyotni yerkinlashtirish jarayonida fermer xo'jaliklarini xam samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida qishloqda infratuzilma sub'ektlarini tashqil etish va rivojlantirishga karatilgan huquqiy-me'yoriy xujjatlar qabul kilinib, ularda vazirlik, kompaniya, tijorat banklari va maxalliy xokimiyat organlariga qishloq xududlarida xizmat ko'rsatish va ta'minot buyicha infratuzilma sub'ektlarini tashqil etish tadbirlarini amaliyotga joriy kilishdagi vazifalar belgilandi.

Xar bir tuman yoki qishloq xududida infratuzilma sub'ektlarining shoxobchalarini tashqil etish, ularni zarur texnika va jixozlar xamda malakali kadrlar bilan ta'minlash muayyan moliyaviy kullab-kuvvatlash va ma'lum bir muddatni talab etadi.

*Nazorat va muokama uchun savollar:*

1. Qishlok xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati nimada?
2. Qishlok xo'jaligi infratuzilmasi tarkibi jihatidan nechtaga bo'linadi?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasi vazifalarini sanab byering?
4. Qishlok xo'jaligida ijtimoiy infratuzilmaning o'rni qanday?
5. Bozor infratuzilmasi muassasalari maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. Infratuzilmaning turkumlashtirilishi qanday olib boriladi?
7. Qishlokda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar barpo etish deganda nima tushunasiz?
8. Qishlok xo'jaligida infratuzilma faoliyatini baxolang?

## 10-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI REJALASHTIRISH

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga javob byeradigan korxonalarining ichki iqtisodiy munosabatlarini o'zida anik, aks ettira oladigan mexanizm bu - rejalashtirishdir.

Bozor iqtisodiyotining talab va taklif qonuniyatlariga tayangan xolda yaratilgan rejalashtirish tizimi, kishlok xujalik korxonalarida mavjud bulgan tarmoqlar o'rtasida, ularning ichki resurslaridan foydalanishda mutanosiblikni o'rnatib, ishlab chiqarishning uzluksiz va tez sur'atlar bilan rivojlanib borishiga imkoniyatlar yaratadi.

Rejalashtirishning asosiy maksadi bozorni sifatli, arzon va rakobatbardosh tovar maxsulotlari bilan to'ldirishda, kishlok xo'jalik korxonalarining soha va tarmoqlari o'rtasida ichki resurslar bilan ta'minlanish mutanosibligini o'rnatish va ulardan foydalanish samaradorligiga yerishishdir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlaridan g'oyat unumli va samarali foydalanishni ta'minlash bilan shunga mos yuksak ishlab chiqarish munosabatlarini ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlikni rivojlantiradi. Har bir kishining milliy boylikni oshirish mas'uliyatini kuchaytiradi, har bir kishini boy qilish orqali jamiyatni ham boyitib boradi.

Yerkin bozor munosabatlarini takomillashtirish hamda iqtisodiyotni lebyerallashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri va oqilona tashkil etish davlatning ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosati asosini tashkil qiladi.



Muayyan makon va zamondagi ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish negizida uning ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, aniq xulosalar chiqarish hamda amaliy tadbirlar belgilash mumkin. Binobarin, samarali, barqaror rivojlanib boruvchi ishlab chiqarish tizimini yuzaga keltirish tom ma'noda o'ziga xos tamoyillarga asoslangan ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish, tabiat bilan jamiyatning qonun va qonuniyatlarini anglash, ularni chuqur tahlil qilish, ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llashni nazarda tutadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonning maqsad-mohiyati ham mamlakat mintaqalarida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan to'g'ri va oqilona tashkil etish orqali milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tomonidan keng muhokama qilingan mazkur Harakatlar strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini beshta ustuvor yo'nalish doirasida qamrab olganligi va "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish, har bir hududning tabiiy, mineral - xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash"ga qaratilganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ilmiy manbalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning quyidagi asosiy tamoyillari ajratiladi:

- ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbalari, yoqilg'i va enyergiya resurslarini iste'mol mintaqalariga yaqin joylashtirish;
- yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmual foydalanish tizimini barpo qilish;
- mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik mavqeidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

➤ yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va o'rta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qonuniyatlar bilan bir qatorda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va ijtimoiy-ekologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari ishlab chiqarish korxonalari, korxonalar guruhi, milliy xo'jalik tarmoqlarining oqilona tashkil etishda ularning ta'sir darajasini hisobga olinishini nazarda tutadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ularning ta'sir darajasiga ko'ra, 4 guruhga bo'lish mumkin.

- ✓ tabiiy omillar;
- ✓ ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- ✓ ijtimoiy - demografik omillar;
- ✓ ijtimoiy-ekologik omillar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar birlamchi xaraktyerga ega bo'lib, u hududda ishlab chaqarishni tashkil etishning moddiy asosi sifatida xizmat qiladi. Keyingi omil demografik jarayonlarning bugungi va istiqboldagi holatini hisobga oladi. Mehnat resurslari mavjud hududlarda syermehnat iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi tizimlari, yuqori malakali mehnat resurslari mavjud hududlarda zamonaviy va o'ta zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qiladi. Aholining hududiy joylashishiga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish migratsion jarayonlarning tartibga solish va boshqarish imkonini byeradi. Bu o'rinda sanoat korxonalarini "filiallashtirish" orqali ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo'yicha bir tekis rivojlantirish mumkin.

Mavzuga oid nazorat savollari:

1. Rejalashtirish deb nimaga aytiladi?
2. Rejalashtirishning maksadini tushuntiring.
3. Rejalashtirishning vazifalarn nimalardan iborat?
4. Reja tuzish uchun kyerakli xujjatlar.
5. Rejalashtirishda kaysi iktisodiy ko'rsatkichlar taxlil etiladi?

## 13-MAVZU. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINING SAMARADORLIGI

*Reja:*

1. *Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi.*
2. *Ishlab chitsarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari.*
3. *Qishloq xo'jaligi ishlab chitsarishining rentabelligi va foyda me'yori.*
4. *Ishlab chitsarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.*

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida maxsulot yetishtirish jarayonida jonli va buyumlashgan Mehnat xarajatlari sarflanib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi umumiy kurinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan Mehnat xarajatlari urtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning ob'ektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichidagi bir kator xususiyatlar va doimiy xarakterdagi omillarning yigindisiga bog'liq. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish oziq-ovqat va xom ashyoga bo'lgan talabning usib borishi, maxsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining uzgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Hozirgi bosqichdagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatda tuplangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning faolligi, ularni tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy kizikishining usishi usimchilik va chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarishini ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytirish va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan okilona foydalanishga imkon byeradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini o'rganishda «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarini bir-biridan farqlash kyerak.

«Samara» tushunchasi kandaydir jarayonning natijasini bildiradi.

Umumiy kurinishda xar kandy ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi - ishlab chiqarishda biror bir tadbirni qo'llash natijasida ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard maxsulot yuzaga chikadi. Bir tomondan, u uz tarkibiga ma'lum davrdagi xarakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yigindisini oladi, boshqa tomondan - ishlab chiqarishning pirovard maqsadi fakat bevosita ishlab chikarilgan moddiy boyliklarning xajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara»- qishloq xo'jalik maxsulotlari shaklida (natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda tarzida esa iktisodiy, shuningdek xodimlarning yashash va ishlash sharoitini xam aks ettiruvchi ijtimoiy usish bo'lishi mumkin.

Lekin samara kanchalik muhim bo'lsa xam, uz-uzidan kishining Mehnat faoliyatini tulik xaraktyerlamaydi, kandy resurs (xarajat)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orkali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurslar turli samara byerishi mumkin. SHuning uchun yerishilgan samarani shu samarani olishda katnashgan resurslar bilan takkoshlash zaruriyati kelib chikadi.

Bundan kurinadiki, samara(natija) deb atalgan absolyut mikdor bilan bir katorda yana bir absolyut mikdor - kullanilgan yoki iste'mol kilingan resurslarni(joriy ishlab chiqarish xarajatlari) xajmini bilish zarurligini keltirib chikaradi.

Ishlab chiqarishning iktisodiy samaradorligi iktisodiy samaraning (natijaning) resurslarga (xarajatlarga) nisbati yoki aksincha usul bilan aniklanadi:

$$S = \frac{S(n)}{R(x)} \quad (9.1)$$

Resurslar va iktisodiy samaradorlik urtasida ma'lum bir aloka mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lishi mumkin: jonli va buyumlashgan. Jonli Mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning absalyut mikdori resurslar (xarajatlar) sifatida, ular mikdorining kamayishi va ularni tejash -

iktisodiy samara shaklida kurinadi.

Samaradorlikni eng muhim kiymat ko'rsatkichlari quyidagilar xisoblanadi:

$$S = \frac{YaM (YaD, SD, F)}{IX+e*AF} \quad (9.2)$$

bu yyerda: S- samaradorlik;

YaM- yalpi maxsulot;

IX-ishlab chiqarish xarajatlari;

e-0,15 asosiy fondlar iktisodiy samaradorligining me'yoriy koeffitsienti;

AF-asosiy fondlar.

Rentabellikda mutlok ko'rsatkich - bu foydadir. Foyda - bu realizatsiya kilish natijasida olingan sof daromadning kismi bo'lib, u maxsulot sotishdan keladigan mablagdan - sotilgan maxsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni yoki tula tannarx kiymatini chikarib tashlangan kismiga teng bo'ladi:

$$F = PT-TT \quad (9.3)$$

Foyda - bu fakat ishlab chiqarish jarayonida tashqil topgan natija xisoblanib kolmasdan, balki maxsulotlarni sotish jarayonida yerishilgan oxirgi iktisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo unda jonli Mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli Mehnati bilan yangi maxsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi kancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan kiymatdagi ish xaki salmogi shuncha oz bo'ladi, uning bir kismi foydani tashqil kilishga ketadi. Foydada, shuningdek buyumlashgan Mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Maxsulot birligi xisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish xaki xarajatlarining kamayishi, baxo uzgarmaganda foydani ko'paytiradi va nixoyat bu ko'rsatkichda maxsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir kator muhim iktisodiy vazifalarni bajaradi:

1. Ulchash vazifasi - foydadan ishlab chiqarish iktisodiy

samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi.

2. Taksimlash vazifasi - qo'shimcha maxsulotni taksimlash vositasi sifatida.

3. Ragbatlantirish vazifasi - iktisodiy ragbatlantirish fondini shakllantirish manbai sifatida.

Rentabellik darajasining xar bir foizi sarflangan bir sumlik ishlab chiqarish xarajati xisobiga olingan foydani bildiradi, ya'ni agarda xo'jalikning rentabellik darajasi 73 foizni tashqil kilsa, bu xar bir sumlik moddiy va Mehnat xarajati xisobiga, ularni koplagandan sung 73 sum foyda ko'rganini bildiradi.

Foyda me'yori - bu xar bir sumlik asosiy va aylanma vositalar kiymati yigindisiga to'g'ri keladigan foyda, sof daromadning foizdagi ifodasi ko'rsatkichi xisoblanadi.

Foyda me'yori:

SD, F

$$FM = \frac{\text{As. i/ch. Fond} + \text{Ay. fond. i/ch.}}{\text{As. i/ch. Fond} + \text{Ay. fond. i/ch.}} * 100 \quad (9.4)$$

As. i/ch. Fond + Ay. fond. i/ch.

SD - sof daromad;

F - foyda;

As. i/ch. Fond - asosiy ishlab chiqarish fondlari;

Ay. fond. urt. k. - aylanma ishlab chiqarish fondlari.

Rentabellikni oshirish omillari deganda eng avvalo foyda omillari tushuniladi. Foyda omillari 2 guruxga bo'linadi:

1. Maxsulot ishlab chikaruvchiga bog'lik bo'lgan va sub'ektiv xaraktyerga ega bo'lgan ichki omillar.

2. Maxsulot ishlab chikaruvchiga bog'lik bo'lmagan va ob'ektiv xaraktyerga ega bo'lgan tashqi omillar.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi tarmogini va milliy iktisodiyotning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning natijasida quyidagilarga yerishiladi:

1. Maxsulot birligiga Mehnat va resurslar kancha kam sarflansa, mavjud resurslardan ko'prok maxsulot olinadi va ular arzon bo'ladi.
2. <sup>^</sup>ishlok xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish katta iktisodiy samara byeradi. Agar respublika buyicha Mehnat unumdorligi oshirilsa, yalpi qishloq xo'jalik maxsuloti oshadi. SHuningdek maxsulot tannarxini tushirish xam yalpi foydaning ko'payishiga sabab bo'ladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini samaradorligini oshirish esa kapital kuyilmani kamaytiradi.
3. <sup>^</sup>ishlok xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorligi qishloq xo'jalik xom ashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat va keng iste'mol buyumlariga kuyiladigan baxolarning darajalariga xam bog'lik. CHunki xarajat kam bo'lsa, yerkin baxolar xam bozorda pastrok bo'ladi.
4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xo'jaliklar daromadining ko'payishga va rentabellikning oshishiga olib keladi. <sup>^</sup>ancha ko'p sifatli va arzon maxsulot ishlab chikarilsa va sotilsa, ishlab chikaruvchilarning daromadi ko'payadi, ko'prok ishlab chiqarishni rivojlantirishga, Mehnat xakini oshirishga va madaniy-maishiy sharoitlarga mablag ajratiladi.

*Nazorat va muhokama uchun savollar:*

1. Samara va iktisodiy samaradorlik tushunchasi nima?
2. Iktisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ayting?
3. Iktisodiy samaradorlikni kaysi yo'llar bilan oshirish mumkin?
4. Rentabellikni kaysi yo'llar bilan oshirish mumkin?
5. Foyda nima va uni oshirish yo'llari kanday?
6. Foyda normasi kanday ko'rsatkich?
7. Maxsulot tannarxini foyda mikdoriga ta'siri kanday?
8. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xo'jaliklarning faoliyatiga kanday ta'sir etadi.
9. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari kanday?

**11-mavzu. Qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish.**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pirovard natijasi yalpi mahsulotdir. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti deganda, shu tarmoqning ma'lum bir davr ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlari miqdorining yig'indisi tushuniladi. Uning tarkibiga faqat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari kiradi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti natura va qiymat ko'rsatkichlarda hisobga olinadi. Natural ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligida yaratilgan iste'mol qiymatlarining tarkibi va miqdorini aks ettiradi. Tsentner, tonna va boshqa o'lchovlarda hisoblanadigan yalpi mahsulot ko'rsatkichiga, 70dehqonchilikda – alohida ekinlar yoki bir xil turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari asosiy mahsulotlari, yosh ko'p yillik daraxtlarning va dehqonchilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning (kuzgi ekinlarning ekish va kelgusi yil hosili uchun xarajatlar) o'sishidagi o'zgarishlar, shuningdek tarmoqning boshqa (qo'shimcha) mahsulotlari (somon, poxol va boshqalar); chorvachilikda – tayyor mahsulotning alohida turlari bo'yicha (sut, jun, tuxum va boshqalar) yalpi tushum: yosh mollar va parrandalarning tirik vaznining o'sishi, shuningdek, tarmoqning boshqa qoldiq mahsulotlari (go'ng va boshqalar) kiradi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini qishloq xo'jalik korxonalarini yalpi mahsuloti bilan almashtirmaslik kerak. Qishloq xo'jalik korxonalarining yalpi mahsuloti ancha keng ma'noga ega bo'lib, u o'z ichiga qishloq xo'jalik mahsulotidan tashqari yordamchi, sanoat va boshqa ishlab chiqarishlarni, ish va xizmatlarni oladi. Masalan: xo'jalikda qayta ishlangan (un, o'simlik, mol yog'i va h.k) dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari va boshqalar qishloq xo'jalik mahsuloti emas, balki sanoat mahsuloti hisoblanadi. Ular ham qishloq xo'jalik korxonalarini yalpi mahsuloti tarkibiga kiradi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini umumiy ifodalash uchun taqqoslama va joriy baholarda, shuningdek mahsulot tannarxi bo'yicha baholash lozim. Mahsulotning umumiy hajmini, uning yillar bo'yicha dinamikasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun, shuningdek, yillik va soatlik mehnat unumdorlik darajasini, fond qaytimini hisoblash va boshqa maqsadlar uchun yalpi mahsulot taqqoslama baholarda baholanadi. Yalpi mahsulotni joriy baholarda aniqlash sof daromadni hisoblash uchun foydalaniladi. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotlari qiymati uning tannarxi bo'yicha hisoblanadi. Pulda ifodalangan qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarmoqda barcha yaratilgan moddiy boyliklarga umumlashgan tavsif beradi. U qishloq xo'jaligining jami ijtimoiy mahsulotdagi salmog'ini, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoq strukturasi darajasi va dinamikasini, alohida kategoriyadagi korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishdagi rolini,



ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun zarur, umum iqtisodiy ko'rsatkich sifatida harakat qiladi.

Qishloq xo'jaligida - pulda ifodalanadigan yalpi mahsulot ko'rsatkichlarining bir qator kamchiliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Yalpi mahsulot faqat jonli mehnat emas, balki buyumlashgan mehnatning ham natijasidir. SHuning uchun yalpi mahsulot bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar, jonli mehnatni tejash hisobiga yuqori bo'lmasdan, balki moddiy resurslarni ko'p sarflash hisobiga amalga oshadi;

2. Yalpi mahsulotni hisoblashning hozirgi - ya'ni dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari summasini qo'shib hisoblash metodikasi takroriy 71 hisoblashga yo'l qo'yadi. Masalan: yem dehqonchilikda ham, chorvachilikda ham mahsulotlar tannarxi moddasida ikki marta hisobga olinadi;

3. Yalpi mahsulotni joriy xarid baholarida baholash, uning haqiqiy qiymatini pasaytiradi, ya'ni yalpi mahsulotning tovar bo'lmagan qismi tannarx bo'yicha baholanadi. U xarid bahosidan sof daromadning miqdoricha kam bo'ladi, ya'ni yalpi mahsulotning qiymati qishloq xo'jalik yalpi mahsulotining tovar bo'lmagan qismini ishlab chiqarishga ketgan, qo'shimcha mehnatni hisobga olmaydi;

4. Yalpi mahsulot ko'rsatkichi har doim ham ma'lum korxonalar kollektivining real mehnat hissasini aks ettirmaydi, chunki uning miqdori boshqa tarmoqlardan keladigan material resurslarning hajmiga ham bog'liq;

5. Taqqoslama baholarda hisoblangan yalpi mahsulot ko'rsatkichi, uning sifatini to'liq aks ettirmaydi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti foydalanishiga qarab, ikki qismga bo'linadi.

**Bir qismi** (urug', yem, buzoqlar uchun ajratilgan sut, inkubator uchun tuxum va boshqalar) bevosita qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish maqsadlari uchun iste'mol qilinadi.

**Boshqa qismi** esa pirovard mahsulot deyiladi va sotish uchun foydalaniladi.

SHu sababli qishloq xo'jaligida «yalpi oborot» tushunchasi ham ishlatiladi. Yalpi mahsulotdan farq qilib, yalpi oborot o'z ichiga hamma yalpi mahsulotni oladi, ya'ni ichki ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadiganini ham, sotiladiganini ham. Yalpi oborot yalpi mahsulotdan ichki ishlab chiqarish oborotining miqdoriga ko'pdir. Qishloq xo'jaligida, boshqa tarmoqlardan farq qilib, yalpi oborot va yalpi mahsulot bir-biriga teng. CHunki, yalpi mahsulot yalpi oborot usuli bo'yicha hisoblanadi, ya'ni unga ichki xo'jalik oboroti ham kiradi. SHuning uchun qishloq xo'jaligida yalpi oborot ko'rsatkichi hisoblanilmaydi.

Tarmoqlar bo'yicha qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibi quyidagicha bo'ladi:

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti:

I. Dehqonchilik mahsulotlari:

- a) qishloq xo'jalik ekinlari asosiy mahsulotning yalpi hosili;
- b) ko'p yillik daraxtlarni o'stirish;
- v) tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'idagi o'zgarish (kuzgi ekinlar xarajati);
- g) qo'shimcha mahsulot (somon, poxol va boshqalar).

II. CHorvachilik mahsulotlari

a) qoramol va parrandalardan xo'jalikda foydalanishdan olingan, mahsulotlar (sut, jun, tuxum, pilla, qorako'l tyeri va boshqalar);

b) qoramol va parrandalarning o'sishi (tirik vaznda);

v) buzoqlar, qo'zi, uloq va boshqa olingan bolalar;72

g) qoldiq mahsulotlar ( go'ng va boshqalar ).

Pulda ifodalangan dehqonchilik yalpi mahsuloti ko'rsatkichi (DYaM) qishloq xo'jaligi ekinlari yalpi hosili qiymati (EYaXK), ko'p yillik daraxtlarni o'stirish xarajatlari qiymati (KYDO'Q), tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatidagi o'zgarishlar va boshqa mahsulotlar qiymati (T ishlab chiqarish va BMK)dan tashkil topadi.

$$DYaM = EYaXK + KYDUQ + T i/ch va BMK \quad (1)$$

Yalpi mahsulotning tarkibida shaxsiy iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi ratsional nisbat ahamiyatga ega. Uning tashkil topishi mahsulotning tannarxi va bahosi, binobarin xarajatlar rentabelligi darajasiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligining tovar mahsuloti deganda, yalpi mahsulotning barcha sotish kanallari orqali, ya'ni davlat, matlubot koopyeratsiyasi, qishloq aholisiga, dehqon bozorida, oshxona orqali, bolalar muassasalariga va chet davlatlarga sotiladigan qismiga aytiladi.

CHorvachilik yalpi mahsuloti (CHYaM) esa, mollar va parrandalardan xo'jalikda foydalanish natijasida olingan mahsulotlar qiymati (MPMQ); mol va parrandalar tirik vazni o'sishining qiymati (TVO'Q), olingan bola qiymati (OBQ) va boshqa mahsulot qiymati (BMQ)dan tashkil topadi.

$$CHYaM = MPMQ +TVO'Q + OBQ +BMQ \quad (2)$$

Tovar mahsulotning sotilgan va bu uchun pul olingan qismi sotilgan mahsulot deyiladi. SHuning uchun «Tovar mahsulot» tushunchasi «Sotilgan mahsulot» tushunchasidan kengdir. Agar tovar mahsulotning hammasi sotilsa, u holda ikkalasi teng bo'ladi. Xo'jaliklarning hozirgi hisobotlarida tovar mahsulotning real miqdori va qiymati aniqlanmaydi.

Sotish paytida sotilgan mahsulot natural formadan pulda ifodalangan qiymat formasiga o'tadi. Sotilgan mahsulotning bir qismi o'sha zahotiy oq qiymat shaklini oladi. Bu chetga ko'rsatilgan xizmatlar yoki boshqa korxonalar uchun bajarilgan ishlarga olingan pul tushumidir. Bir butun qishloq xo'jaligining hamda alohida qishloq xo'jalik korxonalarini va alohida mahsulot turlarining tovarlilikini ikki ko'rsatkichda ifodalanadi:

1. Tovar mahsulotining massasi;
2. Tovarlilik darajasi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri o'zi mustaqil ahamiyatga ega, ammo tovar fondining absolyut miqdori hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda tovarlilik darajasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u sotilgan mahsulotni yalpi mahsulotga bo'lib topiladi va foizlarda ifodalanadi.

Alohida mahsulot turi bo'yicha tovarlilik darajasini aniqlashda yalpi mahsulot va tovar mahsulot natural ko'rinishda foydalaniladi. Ma'lum bir tarmoqning yoki butun qishloq xo'jaligining tovarlilik darajasini aniqlashda yoki har xil mahsulot chiqaradigan turli tarmoq tovarlilik darajasini solishtirganda yalpi sotilgan mahsulotning qiymat ko'rinishidan foydalaniladi. Bunda yalpi mahsulot va sotilgan mahsulot bir xil bahoda baholanishi maqsadga muvofiqdir.

### **Mavzuga oid savollar**

1. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti va ularning taqsimlanishi nima?
2. Qishloq xo'jalik korxonalarining daromadi, foydasi va samaradorligi.
3. Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

Chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti

O'simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyoti

## **12-MAVZU. QISHLOQ XO'JALIK ISHLAB CHIQRISH CHEGIRMALARI VA MAXSULOT TANNARXI**

*Reja:*

1. *Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va maxsulot tannarxi.*
2. *Qishloq xo'jaligi maxsuloti tannarxini rejalashtirish va xisoblash yo'llari.*
3. *Maxsulot tannarxini pasaytirishning imkoniyatlari va omillari.*

Qishloq xo'jalik maxsulotini ishlab chiqarish tarmoqda ishlab chiqarish resurslarini (Mehnat, yer, suv va moddiy va boshqa)ni ishlatish bilan chambarchas bog'langan, kaysiki ishlab chiqarish jarayonida kisman yoki butunlay iste'mol kilinadi, ularning qiymati esa tayyor maxsulotga utadi. Iste'mol kilingan va maxsulotga utkazilgan ishlab chiqarish resurslarining jami yigindisi maxsulotni ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari ikki xil bo'ladi: ijtimoiy xarajatlar va korxonada xarajatlar. Ijtimoiy xarajatlar bu jamiyatning u yoki bu maxsulot ishlab chiqarish uchun kilingan xarajatlarning jamidir. Ular maxsulot qiymatidan tashqil topadi va uz ichiga

quyidagilarni oladi:

1. Bevosita va bilvosita Mehnat xaki xarajatlari (ajratmalari bilan)
2. Yagona yer soligi;
3. Iste'mol kilingan moddiy resurslar qiymati;
4. Qo'shimcha maxsulot qiymati.

Tannarx korxonada maxsulot ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan joriy, ya'ni yillik pulda ifodalangan xarajatlarning jami yigindisidir.

Korxonaning maxsulot olish uchun sarflangan xamma ishlab chiqarish xarajatlari yigindisi yalpi maxsulot tannarxini ifodalaydi va quyidagicha xisoblanadi:

$$Y_{aMT} = I_{chX} \text{ yoki } MT = MX^{et} \cdot A^{Mat} \cdot Xar \quad (81)$$

Asosiy va qo'shimcha maxsulot biriligining tannarxi jami ishlab chiqarish xarajatlarini yalpi maxsulot mikdoriga nisbati bilan topiladi:

$$T = \frac{I_{chX}}{Y_{aM}} \text{ yoki } T = \frac{MX^{et} \cdot A^{Mat} \cdot Xar}{Y_{aM}} \quad (8.2)$$

Maxsulot birligi tannarxidan tashkari ayrim ishlarning (traktor, avtotransport, ishchi xayvon va boshqalar), shuningdek qishloq xo'jaligiga yarakli bo'lgan yerga ishlov byerish, bir bosh xayvondan maxsulot olish xarajatlari xam aniklanadi.

Xarajatlarning shakllanish bosqichlariga karab, tannarxning quyidagi turlari mavjud bo'ladi:

1. Texnologik.
2. Ishlab chiqarish.
3. Tijorat yoki tula tannarx.
  1. Texnologik tannarxga, maxsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'lik bo'lgan, shuningdek, bo'limlarda brigada, fyerma va sexlarda ishlab chiqarishni boshqarish va tashqil kilish bilan bog'lik xarajatlar kiradi.
  2. Ishlab chiqarish tannarxi texnologik tannarxlarning yigindisini, korxonani va ishlab chiqarishni butunlay boshqarish bilan bog'lik xarajatlarning (umumxo'jalik xarajatlari) yigindisini ifodalaydi.
  3. Tijorat yoki tula tannarx ishlab chiqarish xarajatlarining jamisi va maxsulotni sotish bilan bog'lik bo'lgan, muomala xarajatlarining yigindisini ifodalaydi. U fakat tovar maxsulot uchun xisoblanadi.

Bundan tashkari, xisoblash xarakteriga karab quyidagicha tannarx turlari aniklanadi:

1. Reja tannarxi.
2. Dastlabki, vaktinchalik va taxminiy tannarx
3. Xakikiy tannarx
  1. Reja tannarxi, bu korxonada rejalashtirayotgan davrdagi maxsulot birligiga sarflanishi lozim bo'lgan xarajatlar yigindisini ifodalaydi.
  2. Vaktinchalik yoki taxminiy tannarx esa, masalan 9 oylik xakikiy xarajatlarni va 4-kvartaldagi reja xarajatlarini uz ichiga oladi.
  3. Xakikiy tannarx esa yil oxirida korxonada xo'jalik faoliyatini yakun kilishda yillik xisobotlar asosida xisoblanadi. U olingan yalpi maxsulot uchun sarflangan xakikiy xarajatlar asosida xisoblanadi. Maxsulot tannarxi shakllanish joyiga karab, individual (konkret korxonada, uyushma va boshqa), zona (ma'lum bir zonaning urtachasi) va tarmoq tannarxlariga bo'linadi (mamlakat buyicha urtacha).

Qishlok xo'jaligida maxsulot tannarxini xisoblash tarmoq xususiyatlaridan kelib chikadigan bir kancha xususiyatlarga ega:

1. Dexkonchilikda maxsulot ishlab chiqarishning yillik sikli, shuningdek ish vakti va ishlab chiqarish vaktining mos kelmasligi maxsulot tannarxini xisoblashni fakat xo'jalik yili to'g'agandan keyin amaliga oshirish kyerakligini ko'rsatadi.

2. Ko'pgina dexkonchilik ekinlari va turli-tuman chorvachilik maxsulotlarini olish

bir-biri bilan bog'lik.

3. To'g'allanmagan ishlab chiqarish summasini aniklash fakat yil oxirida 1 yanvar xolatida aniklanadi. Bu xarajatlarga kelgusi yil xosili uchun kilingan xarajatlar kiradi.

4. Xakikiy tannarxi fakat yil oxirida aniklanadi, yil davomida esa reja xarajatlari bilan xisoblanadi, bu xakikiy xarajatlarni yil oxirigacha aniklash imkonini byermaydi.

5. Turli xil maxsulotlarni joylarga yetkazish xarajatlarining turli tumanligi.

Qishlok xo'jaligida dexkonchilik va chorvachilik maxsulotlarining barcha asosiy

turlari buyicha, shuningdek ishlab chiqarishga xizmat kiluvchilar buyicha xam tannarx xisoblanadi.

Maxsulot tannarxi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iktisodiy samaradorligining muhim omili va bir vaktning uzida ko'rsatkichi bo'lib xisoblanadi. Xar kandy maxsulot birligining tannarxi ikki mikdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot sifatiga bog'lik bo'ladi. Tannarx quyidagi xollarda pasayishi mumkin:

- agar maxsulot uzgarmagani xolda, xarajat mikdori kamaysa.
- agar yalpi maxsulot mikdori ko'payib, xarajatlar uzgarmasa.
- agar yalpi maxsulotining usish sur'ati xarajatlar usish sur'atidan ilgari ketsa.

Qishlok xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi moddalarga bo'lib xisoblanadi.

DEZDONCHILIKDA	CHORVACHILIKDA
To'g'ri Mehnat xaki ajratmalari bilan	To'g'ri Mehnat xaki ajratmalari bilan
Ugit va kuchatlar	Em-xashak
Uruglik.	Amortizatsiya
Amortizatsiya	Ishlar va xizmatlar
Ishlar va xizmatlar	YoMM
YoMM	Sugurta tulovlari
Sugurta tulovlari	Umum ishlab chiqarish xarajatlari
Umum ishlab chiqarish	Boshqa xarajatlar
Boshqa xarajatlar	

*Nazorat va muuokama uchun savollar:*

1. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?
2. Maxsulot tannarxi nima?
3. Tannarx turlari qanday?.
4. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishini maxsulot tannarxiga ta'siri qanday?
5. Ishlab chiqarish tannarxi nima?
6. Tanarxni pasaytirish yo'llari qanday?
7. Xisoblash xaraktyeriga karab tannarx kaysi turlarga bo'linadi?
8. Maxsulot tannarxiga kaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
9. Bevosita sarf xarajatlarga nimalar kiradi?
10. Bilvosita sarf xarajatlarga nimalar kiradi?

## 16-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI REJALASHTIRISH

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga javob byeradigan korxonalarining ichki iqtisodiy munosabatlarini o'zida anik, aks ettira oladigan mexanizm bu - rejalashtirishdir.

Bozor iqtisodiyotining talab va taklif qonuniyatlariga tayangan xolda yaratilgan rejalashtirish tizimi, kishlok xujalik korxonalarida mavjud bulgan tarmoklar o'rtasida, ularning ichki resurslaridan foydalanishda mutanosiblikni o'rnatib, ishlab

chikarishning uzluksiz va tez sur'atlar bilan rivojlanib borishiga imkoniyatlar yaratadi.

Rejalashtirishning asosiy maksadi bozorni sifatli, arzon va rakobatbardosh tovar maxsulotlari bilan to'ldirishda, kishlok xo'jalik korxonalarining soha va tarmoqlari o'rtasida ichki resurslar bilan ta'minlanish mutanosibligini o'rnatish va ulardan foydalanish samaradorligiga yerishishdir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlaridan g'oyat unumli va samarali foydalanishni ta'minlash bilan shunga mos yuksak ishlab chiqarish munosabatlarini ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlikni rivojlantiradi. Har bir kishining milliy boylikni oshirish mas'uliyatini kuchaytiradi, har bir kishini boy qilish orqali jamiyatni ham boyitib boradi.

Yerkin bozor munosabatlarini takomillashtirish hamda iqtisodiyotni lebyerallashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri va oqilona tashkil etish davlatning ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosati asosini tashkil qiladi. Muayyan makon va zamondagi ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish negizida uning ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, aniq xulosalar chiqarish hamda amaliy tadbirlar belgilash mumkin. Binobarin, samarali, barqaror rivojlanib boruvchi ishlab chiqarish tizimini yuzaga keltirish tom ma'noda o'ziga xos tamoyillarga asoslangan ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish, tabiat bilan jamiyatning qonun va qonuniyatlarini anglash, ularni chuqur tahlil qilish, ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llashni nazarda tutadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonning maqsad-mohiyati ham mamlakat mintaqalarida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan to'g'ri va oqilona tashkil etish orqali milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tomonidan keng muhokama qilingan mazkur Harakatlar strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini beshta ustuvor yo'nalish doirasida qamrab olganligi va "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish, har bir hududning tabiiy, mineral - xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash"ga qaratilganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ilmiy manbalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning quyidagi asosiy tamoyillari ajratiladi:



- ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbalari, yoqilg'i va enyergiya resurslarini iste'mol mintaqalariga yaqin joylashtirish;
- yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmualiy foydalanish tizimini barpo qilish;
- mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik mavqeidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va o'rta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qonuniyatlar bilan bir qatorda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va ijtimoiy-ekologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari ishlab chiqarish korxonalari, korxonalar guruhi, milliy xo'jalik tarmoqlarining oqilona tashkil etishda ularning ta'sir darajasini hisobga olinishini nazarda tutadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ularning ta'sir darajasiga ko'ra, 4 guruhga bo'lish mumkin.

- ✓ tabiiy omillar;
- ✓ ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- ✓ ijtimoiy - demografik omillar;
- ✓ ijtimoiy-ekologik omillar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar birlamchi xarakterga ega bo'lib, u hududda ishlab chiqarishni tashkil etishning moddiy asosi sifatida xizmat qiladi. Keyingi omil demografik jarayonlarning bugungi va istiqboldagi holatini hisobga oladi. Mehnat resurslari mavjud hududlarda syermehnat iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi tizimlari, yuqori malakali mehnat resurslari mavjud hududlarda zamonaviy va o'ta zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qiladi. Aholining hududiy joylashishiga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish migratsion jarayonlarning tartibga solish va

boshqarish imkonini byeradi. Bu o'rinda sanoat korxonalarini "filiallashtirish" orqali ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo'yicha bir tekis rivojlantirish mumkin.

Mavzuga oid nazorat savollari:

1. Rejalashtirish deb nimaga aytiladi?
2. Rejalashtirishning maksadini tushuntiring.
3. Rejalashtirishning vazifalarn nimalardan iborat?
4. Reja tuzish uchun kyerakli xujjatlar.
5. Rejalashtirishda kaysi iktisodiy ko'rsatkichlar taxlil etiladi?

### 13-MAVZU: **Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning samaradorligini oshirish**

#### *Reja*

1. *Qishloq xo'jaligini ekstensiv shaklda rivojlantirish*
2. *Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning intensiv shaklida*
3. *Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari.*

Bozor munosabatlari iqtisodietining hamma jabhalarini, jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi. Mazkur tizimda agrar munosabatlar alohida o'rin tutadi.

Bozor tizimi agrar munosabatlarga yangicha mazmun byeradi. Yyerning tovarga aylanishi yyerga xilma-xil mulkchilikningg paydo bo'lishi yyerning tadbirkorlik ob'ekti bo'lishi, yyerning garovga qo'yilishi nihoyat yyer uchun pul shaklida renta undirilishi, agrobiznesning maxsus faoliyat turiga aylanishi bozor tizimi bilan bog'liq. Yyerdan tashqarida ishlab chiqarishning bo'lishi mumkin emas.

Qishloq xo'jaligi uchun yyer asosiy ishlab chiqarish omili vazifasini o'taydi, ma'lumki, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish ikki eqlama haraktyerga ega: birinchidan, iqtisodiy jaraen bo'lsa ya'ni inson mehnati natijasida yuz byersa, ikkinchidan, tabiiy biologik jaraen bo'lib, mahsulot yetishtirish tabiiy

omillarga masalan, o'simlik èki hayvonlarda kechadigan biologik o'zgarishlarga, iqlim sharoitiga, ob - havoning qanday kelishiga, tuproqning tabiiy xossalariga bog'liq.

Qishloq xo'jaligi insonning tabiatiga bo'lgan munosabati bilan kishilarning o'zaro munosabatlari yaxlitlikda borishini talab qiladi va iqtisodiyatning agrar sektorini tashkil etadi.

Yer cheklangan, uni ishlab chiqarib bo'lmaydi, ammo foydalanadigan yerlarga investitiya sarflab ko'paytirish mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyatining agrar sektorini rivojlantirish bozor munosabatlariga o'tishning asosiy hal qiluvchi bo'g'inidir. Qishloq xo'jaligi respublika aholisini oziq-ovqat, meva-sabzavotlar, g'alla, go'sht va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligi o'zining mahsulotini qayta ishlovchi va sotuvchi sohalar bilan, o'ziga kyerakli resurslarni yetkazib byeruvchi sohalar bilan integrativalashadi. Aytilgan sohalar yaxlitlikda amal qila boshlaydi, qishloq xo'jaligi ham sanoat asosiga, ya'ni eng mukammal texnologiya zamiriga ko'chiriladi. Mehnat unumdorligi keskin oshib, faoliyat foydasi ko'payadi. Qishloq xo'jaligi birinchidan, aholi yetarli miqdorda sifatli oziq-ovqat bilan, sanoatni esa kafolatlangan tarzda xom ashè bilan ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishi kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish qonuni asosida amalga oshadi. Bu rivojlanishga estensiv rivojlantirish va intensiv rivojlantirish yo'llaridan foydalangan xolda yerishiladi.

**Qishloq xo'jaligini ekstensiv shaklda rivojlantirish** deganda mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikni o'sishini miqdoriy omillar evaziga - yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko'paytirish, chorva mollarini boshini ko'paytirish va qo'shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali yerishilishi tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish resurslari ko'lamlarining ortishi yuz byergani holda texnika texnologiyasi, sifat darajasi, yer unumdorligi va chorva mollar mahsuldorligi tubdan o'zgarmaydi. Ekstensiv omillar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'z tarixining dastlabki davrlardan boshlab, o'zlari o'zlashtirgan yerlarni tark etib unumdor yerlarni qidirish uchun yer sharining har tomoniga tarqalganlar. Yangi yerlarni o'zlashtirish hozirgi davrda bizning mamlakatimizdagi kabi dunèning boshqa mamlakatlarida ham davom etmokda. SHu bilan birgalikda dunè mamlakatlarining rivojlanish tarixi tajribasi shuni

ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini yuksaltirishni nisbatan samaradorlik va ahamiyatliroq shakli bo'lgan intensivlashtirish muhim o'rin tutadi.

